

## HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA GRAMMATIK MA'NO TARKIBI

Ushbu monografiya hozirgi o'zbek adabiy tilida grammatik kategoriyalar o'zbek tilshunosligidagi lisoniy tizim yaxtittligi qonuniyatidan kelib chiqqan holda turli umumiylik majmuidan iborat butunlik sifatida o'rganilgan va u o'zbek tilshunosligi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Monografiya 2023-yil 2-may kuni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ilimiy kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. Bayonnoma №9.



Musulmanova Nargiza Rahmatillaevna 1975-yil 6-mayda Toshkent shahrida tug'ilgan. 1992-1997-yillarda QarshiDU O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi, 2001-2003-yillarda mazkur universitet O'zbek tilshunosligi kafedrasida aspiranti bo'lgan.



9 786200 649393

Globe  
EDIT

Globe  
EDIT



NARGIZA MUSULMANOVA

## HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA GRAMMATIK MA'NO TARKIBI

Monografiya

**NARGIZA MUSULMANOVA**

**HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA GRAMMATIK MA'NO TARKIBI**

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

**NARGIZA MUSULMANOVA**

**HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY  
TILIDA GRAMMATIK MA’NO  
TARKIBI**

**Monografiya**

FOR AUTHOR USE ONLY

**GlobeEdit**

## **Imprint**

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: [www.ingimage.com](http://www.ingimage.com)

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group

120 High Road, East Finchley, London, N2 9ED, United Kingdom

Str. Armeneasca 28/1, office 1, Chisinau MD-2012, Republic of Moldova, Europe

Printed at: see last page

**ISBN: 978-620-0-64939-3**

Copyright © NARGIZA MUSULMANOVA

Copyright © 2023 Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOT I UNIVERSITETI**

**NARGIZA MUSULMANOVA**

**HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILIDA  
GRAMMATIK MA’NO TARKIBI**

**2023**

Ushbu monografiya hozirgi o'zbek adabiy tilida grammatik kategoriyalar o'zbek tilshunosligidagi lisoniy tizim yaxlitligi qonuniyatidan kelib chiqqan holda turli umumiylik majmuidan iborat butunlik sifatida o'rganilgan va u o'zbek tilshunosligi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Monografiya 2023-yil 2-may kuni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. Bayonnoma №9.

**Mas'ul muharrir:**

**Filologiya fanlari doktori, professor B.R.Menglyiev**

**Taqrizchilar:**

**Filologiya fanlari doktori (DCs), professor B.Jo'rayeva**

**Filologiya fanlari doktori (DCs), dotsent I.X.Islomov**

## *Kirish*

### **LISONIY MOHIYAT UMUMIYLIKLAR MAJMUI SIFATIDA**

Davr va fan taraqqiyoti tadqiqotchi zimmasiga har doim yangi mas'uliyat yuklaydi. Mamlakatimizda erishilgan milliy istiqloq va jamiyatda yuz bergan ma'naviy–mafkuraviy o'zgarish fan, xususan, o'zbek tilshunosligi oldiga muayyan talablarni qo'ydi. Ma'lumki, tilda, chunonchi, grammatik qurilishida ham, millat ruhiyati aks etadi. Istiqloq tufayli o'zbek tilini uning substansial tabiatidan kelib chiqqan holda tekshirish o'zbek milliy ma'naviyatini o'rganish, milliy mafkura va milliy g'oyani targ'ib qilishning ko'rinishidan biriga aylandi. Bu esa o'zbek tili grammatikasiga ham unda milliy ruhiyat aks etgan mavjudlik sifatida yondashishni taqozo qiladi. Bu – birinchidan. Ikkinchidan, grammatikani o'rganishning yangi bosqichiga ko'tarilish, ya'ni grammatik kategoriyalarni o'zbek tilshunosligidagi lisoniy tizim yaxlitligi qonuniyatidan kelib chiqqan holda turli umumiylik majmuidan iborat butunlik sifatida tekshirish grammatik ma'noni tarkibiy qismga bo'lib o'rganishni ham talab qiladi.

O'zbek tili grammatik kategoriyalarini o'rganish o'zining uchinchi bosqichida. O'rganishning birinchi bosqichida formal– mantiq metodologiyasiga tayangan holda tasviriy metod asosida grammatik kategoriyalar aniqlanib, bu tushuncha ostida, asosan, morfologik va qisman sintaktik kategoriya tadqiq etildi. Grammatik (morfologik) kategoriyaning turi ajratilib, har biriga xos shakllarning bir sistemaga solinganligini, shakllar ifodalaydigan, matn va qurshovda namoyon bo'luvchi turli–tuman nutqiy ma'nolar aniqlanganligi va tavsiflanganligini ta'kidlash lozim. Bunda A.N.Kononov, A.G'ulomov, G'.Abdurahmonov, F.Abdullaev, A.V.Bondarko, M.Asqarova, A.Hojiev, A.A.Koklyanova, J.Muxtorov, U.Tursunov, G'.Zikrillaev kabi tilshunoslarning xizmati katta bo'ldi va yaxlit grammatik ta'limot yaratildi. Nomi zikr etilgan olimlarning tadqiqotlari asosida o'zbek tilining formal akademik grammatikasi, uzluksiz ta'lim bo'g'inlari uchun darslik hamda qo'llanmalar vujudga keldi.



Grammatikani o'rganishning ikkinchi bosqichi bevosita o'zbek tilshunosligiga dialektik mantiqning metodologik asos sifatida tatbiq etilishi hamda til tizimida lison va nutqning izchil farqlanishi bilan bog'liq. Bunda grammatik kategoriyaning umumiy, xususiy va oraliq grammatik ma'nosi, shakllararo oppozitiv munosabat o'rganilib, o'zbek tilining substansial morfologiyasi yaratildi. Bu borada S.N.Ivanov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, H.Ne'matov, G'.Zikrillaev, M.A'lamova, Sh.Shahobiddinova, Z.Qodirov kabi tilshunos va ular izdoshlarining ishlarini alohida ta'kidlash lozim. Bu esa grammatik ma'no tarkibini tavsiflash uchun zamin yaratdi.

Bizga ma'lum bo'lgan hissiy, fahmiy va amaliy bilish, idrokiy yoki nazariy bilish (I.39,20; III.13,28; I.13) barcha sohada bo'lgani kabi tilshunoslikni ham chetlab o'tgani yo'q. Hissiy va amaliy bilish sezgi uzvlari orqali amalga oshadi, signallar idrok qilinib, ya'ni sintezlanib nazariy bilimni tashkil etadi.

Turli xil xususiy va umumiy qarashlarni bir qolipga solish, ya'ni bir necha kishining ongiga bir xil singdirish mumkinmi? Aslida xususiylik va umumiylik degani o'zi nima? Tilshunoslik falsafasi bilan shug'ullangan olimlar bu savolga quyidagicha javob berishadi.

Hayot davomida ko'p uchrab turadigan bu ikki so'z, ya'ni dialektikada xususiy va umumiy, tasavvufda kull va juzv juda muhim kategoriya hisoblanadi. Chunki ularsiz falsafani, tasavvufni, bilish nazariyasi va turli voqea-hodisaning mohiyatini tushunish mumkin emas.

Inson sezib, eshitib, his qilib, ko'rib kuzata oladigan har qanday narsa, belgi-xususiyat, voqea-hodisa xususiylikdir.

Xususiylikning uch asosiy belgisi ajratiladi:

1. Moddiylik va bevosita kuzatishda berilganlik.
2. Alohidalik va takrorlanmaslik.
3. Cheklanganlik va behisoblik (I.39,20).

Xususiylikning bu belgilarini «daraxt» misolida ko'rib chiqqan olim Sh.Shahobiddinova uni shunday tavsiflaydi. Xususiy «daraxt» ko'z oldimizda

ma'lum bir vaqtda, ma'lum bir joyda, ma'lum bir sharoitda, ma'lum bir shakl va ko'rishda hamda ma'lum bir taraqqiyot bosqichida turgan alohida bir narsa, ya'ni o'simlik. Biz uni ko'rishimiz, hidlashimiz, ushlab ko'rishimiz, hatto bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishimiz, chatishtirishimiz mumkin. Har qanday o'simlik ma'lum bir taraqqiyot bosqichini bosib o'tadi, ya'ni ekiladi, ko'karadi, gullaydi, meva beradi (agar mevali o'simlik bo'lsa), quriydi, barglari to'kiladi va hokazo.

Bu jarayon bir necha bor takrorlanishi mumkin. Lekin hech qaysi o'simlik abadiy emas. Misol qilib olingan daraxtning moddiy shaklga ega ekanligini, ya'ni muayyan (ildizni, tanani, shoxlarini, barglarini hosil qiluvchi organik va anorganik) moddalardan iborat ekanligini yaxshi bilamiz. Daraxtning moddiyligi ham ana shu moddalardan tuzilganligi. Agar bu moddiyliklar bo'lmasa, xususiy daraxt ham bo'lmaydi

Demak, muayyan daraxt xususiylik sifatida mavjud ekan, unda turli substansiya (mohiyatlar) zarralari daraxt umumiyligi zarrasi bilan qorishgan holda namoyon bo'ladi. Bular rang, xlorofill, suv, umuman, turli xil organik va noorganik moddalar bo'lib, daraxt substansiyasiga mansub tegishli xususiylikni boshqa «begona» xususiylikdan ajratib olish shunchalik mushkulki, uni tasavvur qilib ham bo'lmaydi. Biroq tasavvur imkonsiz bo'lgan holda tafakkur ishga tushadi. Umuman olganda, har qanday narsa mohiyatini aniqlashda tasavvur o'zgaradi. Shu bilan birgalikda, har bir xususiylik takrorlanmas va alohidadir. Deylik, bir vaqtda biz ikkita bir xil daraxtni ekdik. Ular bir xil ko'kara boshladi, oldinma-keyin gulladi ham. Lekin ularni bir xil deb bo'ladimi? Yo'q, ular ikkita alohidalik. Chunki daraxtlardan biri qurisa yoki uzib olinsa, ikkinchisi o'saveradi.

Xususiy «daraxt»ning alohidalik va takrorlanmaslik belgisi – bu ularning turlicha o'sishi, rivojlanishi, gullashi, turli makonda, turli sharoitda joylashganligi bo'lib, bir-birini takrorlamaydi, shuning uchun ham u ikkita daraxtdir.

Xususiy «daraxt» chegaralanmagan va behisobdir. Butun yer yuzining qayerida bo'lishidan qat'i nazar, qancha daraxt bo'lsa, shuncha xususiy «daraxt» bor.

Tasavvufda bir daryoga ikki marta tushib bo‘lmas, ya’ni oqib ketgan suvga qayta tushib bo‘lmaydi, degan gap bor. Bu ham xususiylik namunasidir. Bir iborani ikki-uch marta aynan birinchi marta aytilganidek aytish mumkin. Lekin bari bir ularning har biri alohida xususiylikni tashkil qiladi. Chunki ular turli zamonda voqelanayapti.

Xususiyy, bevosita kuzatishda berilgan holatlar, falsafada aksidensiya, tasavvufda esa tajalli atamasi bilan yuritiladi (III.13,27; I.13,64).

Tasavvufda xususiylik, avvalo, zohiriylik xossasiga ega. Hazrat Navoiy Haq zotining tajallilari butun borliqqa yoyilganligini va u, deydik, Layli sifatida zohir (namoyon) bo‘lganini aytadi.

Bayt:

*Ey, har sorikim qilib tajalli,  
Ul mazhar bo‘lub jahonda Layli.<sup>1</sup>*

Yoki shoir «Xamsa»si birinchi do‘stoni «Hayratul-abror»ning birinchi munojotidagi quyidagi fikrlar ahamiyatlidir.

*Ne bo‘lub avvalda bidoyat sanga,  
Ne kelib oxirda nihoyat sanga.  
Borchag‘a xoliq, boriga ayn o‘zung,  
Sen edingu yana mavjud yo‘q.  
Jilva qilib, o‘zungga o‘z husnug –o‘q,  
Nozir o‘zung erdingu manzur o‘zung.  
Ishqingga xush, husnugga mag‘rur o‘zung.  
Birlik edi-yu, adadi yo‘q edi,  
Birdin o‘zga ahade yo‘q edi.<sup>2</sup>*

Ko‘rinadiki, shoir nazdidagi *borcha, jilva, ayn, sen, husn, manzur, adad* so‘zlari - xususiylik kabi bevosita sezgi a‘zolariga ta‘sir qiladigan mavjudlik.

---

<sup>1</sup> Navoiy Alisher. Layli va Majnun. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashr. 1990. -365 b.

<sup>2</sup> Navoiy Alisher. Hayratul-abror. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashr. 1990. -378 b.

Boshqa mutasavvufklar kabi Hazrat Navoiy ham aksidensiya (tajalli)ni substansiyaga qarama-qarshi qo‘yadi.

Bayt:

*Zotidan demaydurur xud kimsa so‘z,  
Kim erur ko‘r onda har binanda ko‘z.<sup>3</sup>*

Substansiya bitta bo‘lib, uning voqelanuvchilari cheksiz. Bu voqelanishlar cheksiz miqdorda yoyilgan bo‘ladi.

Bayt:

*Birlik oyinida zotidur oning,  
Lek mingdin ko‘p sifotidur oning.*

Yoki:

*Zihi husnung zuhuridan tushub har kimga bir savdo,  
Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz g‘avg‘o.<sup>4</sup>*

Masalan, suv substansiyasi bitta bo‘lsa, u butun borliq, hayvonot va nabobot olamiga yoyilgan, ularda voqelangan.

Xususiylik kabi voqelanish ham sof holda mavjud bo‘la olmaydi. Har qanday voqelanish ko‘p qirrali. Borliqda birorta ham ximiyaviy element sof holda mavjud bo‘la olmaganligi kabi voqelik ham boshqa voqeliklar bilan qorishiq holdagina mavjudlikka ega bo‘la oladi.

Alisher Navoiy «Lisonut-tayr» masnaviysida Semurg‘ huzuriga yo‘l olgan qushlarda Semurg‘ substansiyasi o‘z alomati bilan birga o‘zga, begona voqelanishlar (nafs, o‘zlik va boshqa shaytoniy his) ham mavjudligini inobatga olib, yo‘l davomida ramziy vodiylarni bosib o‘tish mobaynida qushlarni birma-bir bu «begona» alomatlardan xalos qilish maqsadini qo‘yadi. Qushlar xalos bo‘lgach, ularda faqat tamoman Semurg‘ substansiyasi qoladi. Ana shunda tegishli

---

<sup>3</sup> Navoiy Alisher. Lisonut – tayr. (Nasriy bayoni bilan). –T.: 1991. –230 b.

<sup>4</sup> O‘sha asar.

(Semurgʻ) substansiya bilan uning namoyon boʻlgan voqelanishi orasida farq, toʻsiq, yaʼni qorishiq alomat qolmaydi. Bu ximiyaviy yoʻl bilan tabiatdagi biror moddani tozalab, undan tegishli elementni ajratib olishga oʻxshaydi.

Suv ( $H_2O$ )da ikkita vodorod va bir kislorod aksidensiyasi mustahkam birikuv hosil qilgan. Agar suv ximiyaviy suv boʻlmasa, unda bundan tashqari cheksiz narsa – minerallar, bakteriyalar, tuz va hokazolar qorishgan holda yashaydi. Ximiyaviy suv( $H_2O$ )ning oʻzini ajratib olish ham naqadar mushkul. Bu insonning oʻz shuurida HAQ zotiga toʻgʻri kelmaydigan illatlardan xalos boʻlishi uchun kuch, iroda va riyozat, kabilar talab qilinishiga oʻxshaydi.

Ximiyaviy suvdagi ikkita substansiya namoyandasidan keraksizi olib tashlansa, yo kislorod, yo vodorod zoti voqelanishi qoladi. Bularning endi oʻz substansiyalari bilan bogʻlanishi uchun toʻsiq boʻladigan hech narsa qolmaydi.

Turli aksidensiya birikuvi narsa va hodisalar sonini behad koʻpaytiradi. Ana shu «koʻplik»larning aslida oʻrganayotgan narsa substansiyasiga har doim ham daxldor emasligini anglash qiyin. Aks holda bugungi kunda, deylik, tilshunoslikda zamon kategoriyasining 10 dan ortiq (I.7; III.4; II.4; III.5; I.21; I.27; III.54; II.10; III.12; I.39; IV.4; IV.7), ravishdoshning 7-8 ta koʻrinishi (III.11; I.53), qaratqich kelishigining 50 dan ortiq (I.53; I.39; I.49; II.5; I.60; II.22; II.14; I.21) maʼnoviy turi ajratilmagan boʻlur edi.

Substansiya va aksidensiya tushunchasi, ularning oʻzaro munosabati masalasini toʻgʻri tushunish va idrok etish, boshqa fanlarda boʻlgani kabi, tilshunoslikda ham bevosita kuzatishda berilgan hodisa va ular zamiridagi mohiyatni aniqlashda muhim metodologik qiymat kasb etadi. Tadqiqotimizda asosiy maqsad grammatik shakllardagi kategorial, yondosh va hamroh maʼnolarni farqlash ekan, bunda biz uchun gnoseologik substansiya va aksidensiya dialektikasi asosiy metodologik mohiyat kasb etadi. Shuningdek, substansiyada mujassam holda mavjud boʻlgan umumiylik va mohiyat kategoriyasi munosabatini toʻgʻri idrok qilish va undan kategorial va nokategorial maʼno munosabatini

oydinlashtirishda metodologik omil sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilga sistem yondashuv metodologik asos sifatida dialektika va uning bilish nazariyasiga tayanadi. Bunda dialektika kategoriyalari, xususan, **umumiylik** va **mohiyat** tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi. Buning izchil farqlab idrok etilishi tadqiq manbaimiz – grammatik shakldagi kategorial, yondosh va hamroh ma'noni farqlashda muhimligi sababli masalaga metodologik asos sifatida alohida to'xtalish zarurati bor.

O'zbek tilshunosligida til birligining lisoniy jihatiga umumiylik va mohiyat, nutqiy voqelanishiga esa xususiylik, hodisa sifatida qarash urf bo'ldi va bu ushbu yo'nalish tamoyillari asosida yaratilgan ko'p sonli ilmiy tadqiqot ishlarida, o'quv va uslubiy adabiyotlarda o'z ifodasini topdi. Ko'p holda umumiylik va mohiyat kategoriyasi bir–birining ma'nodoshi sifatida talqin etiladi: **lisoniy umumiylik, lisoniy mohiyat** kabi.

Sistem tilshunoslik vakillari tadqiqotlarida bu kategoriyalarni farqlab yondashish hollari kam uchraydi va ular bu ikki kategoriyani asosan ma'nodosh birlik sifatida qo'llab, gnoseologik xatoga yo'l qo'yadilar.

Dalillarga murojaat qilamiz.

Turkiy tillarning substansial tadqiqi asoschisi S.N.Ivanov xususiylik va umumiylik dialektikasi haqida fikr yuritar ekan, yozadi: «Dialektik materializm va dialektik mantiq umumiylikni muayyan predmet va hodisaga zid turuvchi qandaydir mavhumlik sifatida talqin qilishni inkor etadi. Buni inson tushunchasining tahlili asosida kuzatamiz. Ko'rinadiki, olim umumiylik haqida gapira turib, mohiyat haqidagi iqtibosni keltiradi hamda umumiylik va mohiyat tushunchalarini aynan hodisa sifatida talqin qiladi: «Dialektik mantiq uqtiradiki, real borliqda faktlarning fahmiy kuzatilishiga muvofiq kelmaydigan, nazariy bilimlarning obyektiv (fikrlovchiga bog'liq bo'lmagan) analogi (o'xshashlari) mavjud. Bu analog shunday umumiylikni, hissiy anglanayotgan narsalar zamiridagi mohiyatini tashkil qiladi» (I.22,19; Yana qarang: I.15,295-329). Chunki

olimning e'tiroficha, «mohiyatning «yashirinligi» haqida gapirganda, uning sof ichki substansiya ekanligi nazarda tutilmaydi, balki mohiyat shunday umumiylikki, u zohiran bo'linuvchan, bevosita kuzatishda berilgan hodisalarga berkitilgan» (I.21,19). Holbuki, olim tayangan metodologik manbada mohiyat «bitta hodisaning emas, balki ko'plab hodisa va ular bog'lanishlarining yagona asosi sifatida namoyon bo'ladi» (I.17,225).

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida falsafiy umumiylik va mohiyat kategoriyasining til hodisasiga tatbiqi H.Ne'matov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, R.Sayfullaeva va ularning izdoshlari tadqiqotlarida izchil davom ettirildi. Bunda, asosan, lisoniy birlikka xos umumiylik (umumiy grammatik ma'no, umumiy sintaktik qolip, umumiy lug'aviy ma'no)ni tiklash maqsad qilib qo'yiladi va til hodisasining mohiyati deganda uning lisoniy umumiyligi nazarda tutiladi. «Grammatik shaklning paradigmatic ma'nosiga munosabat nuqtai nazaridan grammatik kategoriya ma'nosi umumiylik sifatida namoyon bo'ladi. Grammatik kategoriyaning paradigmatic ma'nosi u bilan yondosh boshqa grammatik kategoriya bilan munosabatidan kelib chiqadi. Grammatik shaklning (kategoriyaning) mohiyati nafaqat bevosita, balki bilvosita aloqalarda ham yuzaga chiqadi» (I.38,5). «XGM kuzatishlarimiz uchun ayon, shunga ko'ra, u aniqroqdek. Biroq dialektika mavhum va aniq tushunchani odatdagidan boshqacharoq talqin qiladi. Dialektika uchun aloqalardan uzilgan narsa haqidagi tasavvurdan ko'ra mavhumroq narsa yo'q. Chunki bu tasavvur narsa haqida obyektiv bilim bera olmaydi. Aniqlik esa narsa haqidagi taxminiy, hissiy cheklangan tasavvur emas, aksincha, uning barcha zohirliklarini o'z ichiga oluvchi va bu zohirliklarni birlashtirib turuvchi sistemadir. Shu tufayli ilk qarashda nihoyatda mavhum va uzoq tuyuluvchi **mohiyat** (ta'kid bizniki – N.M.) tekshirish chuqurlasha borgan sari tobora aniq va ravshan bo'lib boradi» (II.19). Ko'rinadiki, tilshunos ishlarida ham mohiyat va umumiylik kategoriyasi izchil farqlanmaydi.

Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Demak, o'zbek tilshunosligida **mohiyat** va **umumiylik** kategoriyasi muqobil termin sifatida ishlatilmoqda.

Falsafiy adabiyotlarda umumiylik va mohiyat kategoriyalari izchil farqlanadi (I.45). Shu boisdan, kategoriyalar tabiatiga bag'ishlangan barcha falsafiy adabiyotlarda ularning o'zaro munosabatiga va o'ziga xosliklariga alohida e'tibor qaratiladi. Biz muammo talqiniga doir behad katta miqdordagi ilmiy manbalar tahlilidan cheklanish maqsadida, ularning eng asosiylarini o'quvchilar diqqatiga havola etgan holda (I.13; I.32,3; I.33,22-26; I.46,224-226; I.39,20-27) asosiy farqni bayon etishga harakat qilamiz. Falsafiy adabiyotlarda umumiylik «obyektiv reallikning barcha yoki bir qancha narsa va hodisadagi obyektiv mavjud bo'lgan tomon, xossa va belgilarning majmui, ular o'rtasidagi aloqa va munosabatning o'xshashligi», mohiyat esa «hodisaning ichida yashiringan moddiy olamning turli-tuman hodisalarida yuz beradigan chuqur, nisbiy barqaror aloqalarni ifodalaydigan voqelikning ichki tomoni» (I.45,138-142) sifatida ta'riflanadi. Sharhlardan ma'lum bo'ladiki, umumiylikni tiklash bevosita xususiylik asosida bo'ladi. Demak, umumiylik va mohiyat kategoriyalari ichiga oluvchanlik nuqtai nazaridan farqlanib, mohiyat eng xarakterli jihatni qamrab olsa, umumiylik undan «hajman kattaligi» bilan ajralib turadi.

Ma'lumki, umumiylik bevosita kuzatishda berilgan alohidaliklardagi tafovutlarni chetlatish va o'xshashliklarni umumlashtirish asosida tiklanadi. Mohiyat esa barcha kategorial ma'nolarda bo'lgani kabi bevosita kuzatishda berilgan alohidaliklar asosida emas, balki mohiyati aniqlanayotgan narsani o'z tizimida, lisoniy hodisalarda esa ularning paradigmadoshlari bilan munosabatlarini tekshirish asosida aniqlanadi. Demak, mohiyatni aniqlash zamirida umumiylik bo'lib, umumiylikni tiklamasdan mohiyatni aniqlashga kirishib bo'lmaydi. Dialektika uqtirganidek, «Har qanday umumiylik to'g'ridan-to'g'ri mohiyat tarkibiga kiravermaydi, biroq mohiyat umumiylikdan tashqarida bo'lolmaydi»



(I.45,58). Umumiylik mohiyat e'tibori bilan ahamiyatsiz, biroq takrorlanuvchan jihatlarni ham o'z ichiga oladi.

Deylik, «daraxt» umumiyligiga meva va tana tuzilishining o'ziga xosligi ham kiradi. Biroq, daraxtni o'simlikning boshqa turidan farqlovchi jihat bo'lgan yo'g'on va qattiq po'stloqli tana uning mohiyatidir. Daraxatlar barg, shox, meva, rang, hid va h.lar kabi umumiy belgilarga ham ega bo'lishi mumkin. Lekin bularning birortasi ham uning shakl belgisi bo'la olmaydi. Chunki bu xususiyatlar buta va o't-o'lanlarda ham bo'lishi mumkin. Ko'rinadiki, umumiylik mohiyatga nisbatan boy, biroq mohiyat umumiylikka nisbatan chuqurroqdir (I.45,62). Masalan, «daftar» leksemasi lisoniy birlik sifatida «varaqlardan tashkil topgan, muqovalangan, yozish uchun mo'ljallangan o'quv quroli nomi va inson qalbi kechinmalari ifodasi» umumiyligiga ega. Biroq, ikki qirrali umumiylikning bir qirrali – «varaqlardan tashkil topgan, muqovalangan, yozish uchun mo'ljallangan o'quv quroli» sememasi mazkur leksemaning mohiyati bo'lib, uni paradigmadoshlaridan farqlaydi. «Inson qalbi kechinmalari ifodasi» ma'nosi esa sememaning hosila va avvalgi sememaga yondosh semema bo'lib, ular birgalikda «daftar» leksemasining umumiyligini tashkil etadi. Ikkinchi semema leksema umumiyligining tarkibiy qismi bo'lsa-da, leksemaning substansiyasi doirasiga kirmaydi.

Ma'lumki, formal-funksional yondashuvda lisoniy birlik mohiyatini ikki bosqichda ochish lozimligi uqtiriladi. Xususan, Sh.Shahobiddinova morfemalarning umumiy ma'nosini tiklashning ikki bosqichli usulini tavsiya etadi: «Birinci bosqichda xususiyliklar kuzatilishi lozim. Lekin xususiyliklarni kuzatishning o'ziga bizga umumiylik mohiyatini ochib bera olmaydi. Dialektik xususiyliklar kuzatilgach, ularni butunlik sifatida qarash talab qilinadi. Xususiylikni butunlik sifatida qarash esa umumiylik mohiyati asosidagina amalga oshirilishi mumkin. Umumiylikning **mohiyati** (ta'kid bizniki – N.M.) ma'lum bir umumiylikning o'ziga o'xshash va farqli umumiyliklar bilan munosabatidagina ochilishi mumkin» (III.17,12-13).

Lisoniy birlikning mohiyati paradigmadagi boshqa lisoniy birlik umumiy ma'nosi bilan munosabatida ochiladi. Grammatik talqinda kelishik kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosi sifatida «tobe ismi hokim ismga bog'lash va turli subyekt, obyekt, makon, zamon, vosita ma'nolarini ifodalash», egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi sifatida esa «keyingi so'zni oldingi so'zga bog'lash egalik, qarashlilik ifodalash» beriladi. Kategoriyaning sintaktik tabiatliliigi va ma'nolarning ikkinchi qismini ifodalashda uning yolg'iz emasligi asosida har ikkala kategoriya qiyoslanar, o'zaro munosabatda tekshirilar ekan, qiyosda «oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash (kelishik), keyingi so'zni oldingi so'zga bog'lash (egalik kategoriyasi)» yuzaga chiqadi. Bu belgi umumiyliklar munosabatidan qalqib chiquvchi parcha bo'lib, aslida u kategoriyalar mohiyati.

Demak, ma'lum bo'ladiki, barcha lisoniy birlikda bo'lgani kabi grammatik shaklda ham umumiy grammatik ma'no mohiyat va undan tashqari jihatdan iborat bo'ladi. Til umumiy grammatik ma'nosidagi kategorial jihat mohiyatini tashkil etsa, umumiy grammatik ma'noning mohiyatiga kirmaydigan qismi nokategorial hodisa sifatida baholanishi lozim.

Umumiy grammatik ma'no murakkabligining falsafiy asosi shundan iboratki, tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining eng umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi falsafa borliqdagi barcha mavjud narsa sof holda bo'lmasligi, har qanday xususiy, alohida narsada turli umumiyliklar zarralari – xususiyliklari qorishgan holda mavjud bo'lishi haqida ta'lim beradi. Shakl-ko'rinish va material xususiyati narsaning o'z substansial mohiyati ko'rinishini to'sib qo'yadigan darajada yaqqol namoyon bo'lishi ham mumkin. Bu esa har qanday holda ham kuzatuvchini aldovchi holat. Shuning uchun maxsus metodologiya bilan qurollangan o'rganuvchi aqliy yo'l bilan «begona» ko'rinishlarni e'tibordan soqit qilib, mohiyat sari intiladi.

Gap mohiyat xususida borar ekan, bugungi kunda ko'p hollarda falsafaning o'zida turli munozaraga sabab bo'layotgan *umumiylik*, *mohiyat*, *sabab* va *imkoniyat* tushunchalaridan dastlabki ikkitasi - *umumiylik* va *mohiyat*

kategoriyalari, aksariyat holatda, farqlanmasdan ifoda etiladi. Bu esa til birliklarining sof lisoniy xossalari bo'lgan mohiyati va umumiyligini ajrata olmaslikka, ularni qorishtirishga sabab bo'ladi. Umumiylik birlikning lisoniy qiymati bo'lib, unda mohiyat ham, mohiyatdan tashqaridagi, lekin u bilan dialektik aloqadorlikda bo'lgan jihatni ham qamrab oladi.

Demak, tilshunoslikda falsafiy substansiya, umumiylik va mohiyat kategoriyalarining ana shunday tushunilishi va o'rganish obyektiga izchil va to'g'ri tatbiq etilishi lisoniy birlik tabiatini to'laroq oydinlashtirish imkonini beradi. Bu esa ikki bosqichda amalga oshiriladi. Dastlab nutq birligida qorishiq holda mavjud bo'lgan sof lisoniy umumiylik zarrasi va «begona» hodisalar farqlansa, ikkinchi bosqichda lisoniy umumiylikdagi mohiyat va yondosh jihat ajratiladi.

FOR AUTHOR USE ONLY

# **1-BOB. GRAMMATIK MA'NO TARKIBI. KATEGORIAL, YONDOSH VA HAMROH MA'NO**

## **1.1. Grammatik shaklning umumiy grammatik ma'nosi va uning tarkibiy qismlari. Kategorial va nokategorial ma'no**

Til hodisasini nazariy o'rganish bosqichi morfologik hodisaning cheksiz nutqiy ma'nosi zamiridagi lisoniy jihatini – umumiy grammatik ma'nosini tiklashni kun tartibiga qo'ydi. Chunki «tilshunosligimizda grammatik ma'no, uning tabiati, mohiyati, umumiy va xususiy ma'no muammosi yaqin vaqtgacha maxsus qo'yilmagan edi» (II.19,3). Grammatik shakl umumiy grammatik ma'nosi muammosiga jahon tilshunosligida 30-, turkiyshunoslikda 60-yillardan boshlab S.N.Ivanov, V.G.Guzev, H.G'.Ne'atov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, G'.N.Zikrillayev tadqiqotlarida alohida e'tibor qaratildi (I.23; III.1; III.12; I.39; I.20). Zamonaviy o'zbek tilshunosligida esa Sh.Shahobiddinova, D.Nabieva, Z.Qodirov, B.Bahriddinova, O.Shukurov tadqiqotlarida bu masala atroflicha tekshirildi va o'zbek tilining barcha morfologik kategoriyasi lison–nutq bo'linishida tadqiq etildi (II.2; II.7; II.8; II.199; II.20; II.21) hamda «UGM til birligining minglab turli xil matnlarda yuzaga chiqadigan va bevosita kuzatishda berilgan xususiy (nutqiy) grammatik ma'no (XGM)ning umumiy yig'indisi bo'lmay, XGM negizida yotgan, unga nisbatan dialektik umumiylik vazifasini o'taydigan ma'no» (II.19,21) sifatida qayd etildi. Bu borada amalga oshirilgan ishlarni umumlashtirgan holda o'zbek tili morfologik kategoriyalari UGMlarini jadvalda quyidagicha berish mumkin:

---

<b>Grammatik kategoriya</b>	<b>GKning ma'naviy xususiyatlari</b>	<b>GKning sintaktik imkoniyatlari</b>
Kelishik	Ma'naviy aniqlik / noaniqlik, sifat va predmet, manba, sabab, maqsad, payt, o'rin, vosita, chegara va h.k.	Tobe so'zni hokim so'zga bog'lash.
Egalik	Egalik, shaxs – son, tegishlilik va h.k.	Keyingi SShning oldingi SSh (sintaktik shakl)ga munosabatini ifodalash.
Son	Miqdor, miqdoriy aniqlik / noaniqlik, sifatiy bo'linuvchanlik / bo'linmaslik va h.k.	SShga yangi valentliklar berish
Daraja	Belgining nisbiyligini ifodalash	Mikromatn tarkibiy qismlarini bog'lash, sintaktik qurilma ma'nosini o'zida mujassamlashtirish.
Nisbat	Harakatning obyektga munosabatini, o'timli / o'timsizligini, medial / nomedialligini ifodalash	Fe'l valentligini o'zgartirish, uning foiliga munosabatini ifodalash.
Fe'ning funksional shakllari	Fe'lga sifatlik, ravishlik va otlik xususiyatlarini berish.	Fe'lni ot-fe'lga, fe'lni fe'lga bog'lash, fe'lga ot vazifasini berish.
Mayl – zamon	So'zlovchining harakatga va harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalash.	Gap kesimini shakllantirish, SShga yangi valentliklar berish, mikrotekst tarkibiy qismlarini bog'lash.

Shaxs – son	Harakat bajaruvchisining shaxsi va sonini, aniqlik / noaniqligini ifodalash.	Gapning ega va kesimi aloqasini ta'minlash.
-------------	--	---

(II.7,70-71)

Ko‘rinadiki, morfologik kategoryaning umumiy grammatik ma’nosi o‘ziga xos, serqirra va bo‘linuvchan bo‘lib, bu bo‘linuvchanlik va serqirralik grammatik shakl umumiy grammatik ma’nosining murakkab tabiatliligini ko‘rsatadi. Grammatik shakl umumiy grammatik ma’nosining serqirraligi, aniqrog‘i, kamida ikki qirraligi ular ichki va tashqi munosabatlarining ham murakkabligiga bog‘liq bo‘ladi.

Grammatik shakl umumiy grammatik ma’nosi serqirraligi ular tabiatining qarama–qarshilikli, ziddiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Narsaning mohiyatini anglash esa ana shu «ziddiyatli, o‘zaro inkor etuvchi, qarama–qarshi tendensiyalarni ochish (tan olish)ni taqozo etadi» (I.22,24).

Lisoniy hodisa serqirra ekan, u kamida ikki paradigmaga mansub bo‘ladi. Til hodisasiga formal–funktional yondashuvning asosiy tamoyilidan biri ham, har bir lisoniy birlikning kamida ikki paradigmaga mansubligidir (I.56,8). «Lisoniy birlikning bir necha, kamida ikki paradigmada ishtirok eta olishi dialektika va tasavvufda narsaning (istalgan tadqiq manbaining) serqirraligi bilan bog‘liqdir. Ma’lumki, dialektikada narsaning, bizningcha, lisoniy birlikning serqirraligi deganda, shu narsaning o‘ziga o‘xshash hamda noo‘xshash, aloqador va aloqasiz cheksiz narsalar bilan rang-barang munosabatga kirisha olishi va shu asosda ziddiyatli xususiyat, tomon ega ekanligi tushuniladi» (I.56,8).

Lisoniy birlikning serqirraligi uning bir paradigmaga kirishi bilan boshqa paradigmatic belgining kuchsizlanishini keltirib chiqarishiga bog‘liq. Boshqacha aytganda, «lisoniy birlik bir necha paradigmaga kirar ekan, har bir paradigmaga faqat bir qirradi bilan kiradi, boshqa qirradi esa shaklni o‘zga paradigmaga olib kiradi» (I.56,10).

Umumiy grammatik ma'no, demak, ham u, ham bu paradigмага kira oladi, uni bir paradigma bilan cheklab bo'lmaydi. Shu bilan birgalikda, bir vaqtning o'zida bir paradigмага mansub bo'ladi. Umumiy grammatik ma'nosini «bir shaklning ikkinchi shaklga munosabati, ya'ni bir qator ziddiyat asosida keltirib chiqarish uni behad jo'nlashtirish bo'ladi, holbuki, paradigmatic shakl(grammatik kategoriya)ning munosabati rang–barang» (I.38,4). Chunki shaklning bevosita munosabatlari asosida uning mohiyati emas, balki qandaydir alohida qirrasini ochiladi.

Grammatik shakl o'zi mansub grammatik kategoriya umumiy grammatik ma'nosini juz'iyashtirishi va qay darajada juz'iyashtirishi bilan umumiy grammatik ma'noga munosabatini bildiradi. Ma'lumki, grammatik kategoriya grammatik shakllarning oddiy arifmetik yig'indisiga teng emas va ular orasida, odatda, tur-jins munosabati mavjud bo'ladi. Boshqacha aytganda, grammatik shakl grammatik kategoriya umumiy grammatik ma'nosini lisoniy sathda o'zicha juz'iyashtiradi hamda nutqiy sharoitga mos ravishda turli ko'rinishda muayyanlashtiradi. Agar kategoriya umumiy grammatik ma'nosi bilan uning alohida shakli nisbiy umumiy grammatik ma'nosi orasida nomuvofiqlik mavjud bo'lsa, har bir holat alohida tavsiflanishi lozim (II.7,64).

Grammatik shakllar GK UGMsini turlicha «parchalaydi» va bu «parcha»ga o'ziga xos hissasini qo'shadi. Masalan, o'zgalovchi kategoriya «fe'lni hokim so'zga bog'lash» umumiy grammatik ma'nosiga ega bo'lib (II.7;II.20;II.2), tadqiqotchilar uning har bir shakli (ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi) bu umumiy grammatik ma'noni o'ziga xususiyashtirishini (ravishdoshda «fe'lni fe'lga bog'lash», sifatdoshda «fe'lni otga bog'lash», harakat nomida «fe'lga ot vazifasini berish») va unga nimadir «qo'shish» (ravishdoshda «fe'lga ravishlik xususiyatini berish», sifatdoshda «fe'lga sifatlik xususiyatini berish», harakat nomida «harakatni statiklashtirish»)ni ta'kidlashadi. Bu shakllarning ko'rinishlari esa umumiy grammatik ma'nodan «uzoqlashib», ulardagi o'ziga xoslik yanada kuchayadi. Masalan:

- « *-gach* – boshqa bir harakatning boshlanish chegarasini ko‘rsatish;
- guncha* – boshqa bir harakatning tugallanishi chegarasini ko‘rsatish;
- ganda* – boshqa bir harakatning sodir bo‘lish fonini ifodalash;
- (i)b* – holat, payt;
- a/y* – davomlilik va takroriylik;
- gani* – maqsad (II.7,106).

Bu shakllarning barchasida ravishdoshga xos umumiy belgi – «fe'lni fe'lga bog‘lash» saqlangan, biroq har biri o‘zicha boshqa ma’noni ham ifodalaydi. «Barcha ravishdoshlarda ravishdoshning umumiy ma’nosi mavjud – fe'lni fe'lga bog‘laydi. Lekin bu UGM birinchi–oltinchi formalarda parchalanmaydi, bo‘linmaydi va birinchi–ikkinchi–uchinchi qatordagi shakllarning o‘zaro zidlanish kategoriya UGMsi ko‘rinishlari asosida emas, balki payt, zamon, davomli–davomsizlik, sabab–maqsad kabi ushbu kategoriya UGMsi (fe'lni–fe'lga bog‘lash)ga xos bo‘lmagan ma’nolar asosida tuziladi» (II.20). Zero, «ravishdoshlik nuqtai nazaridan bu shakllarning barchasi bir xil ma’noga ega. Bu shakllar orasidagi zidlanish ravishdoshlik (fe'lni fe'lga bog‘lash – N.M.) emas, zamon, tarz, sabab, maqsad ma’nolari asosida. Shuning uchun ular ravishdoshning turli zamon va tarz shakli emas, zamon va tarz kategoriyasining ravishdoshdagi ko‘rinishi sifatida qaralishi lozim» (II.7,85). Demak, ma'lum bo‘ladiki, grammatik shakllarda bu shakl mansub kategoriyaga va boshqa kategoriyalarga xos ma’nolar ham mavjud bo‘ladi.

Xo‘sh, bu mavjudlik shunchaki grammatik illyuziyami yoki uning asosida qandaydir lisoniy qonuniyat yotadimi?

Lisoniy birlik serqirra ekan, u asosiy belgilovchi xossasi bilan birgalikda unga yondosh ikkinchi darajali xossaga ham ega bo‘ladiki, bu ikkala jihat dialektik butunlikni tashkil etadi.

«Grammatik shakllarda kategorial (mohiyat – N.M.) ma’no bilan birgalikda qator yo‘ldosh ma’nolar ham mavjud bo‘ladiki, bu ular mohiyatining kamida ikki qator ziddiyatda ochilishini ko‘rsatadi» (I.38,5). Masalan, «son kategoriyasi



umumiy grammatik ma'nosi atalmishining miqdoriy va sifatiy tavsifini berishdan iborat. Bu umumiy kategorial ma'no [0] shaklda «miqdoriy aniqlik–noaniqlik, sifatiy bo'linmaslikni», [-lar] shaklida «miqdoriy noaniq ko'plik va sifatiy bo'linuvchan hamda bo'linmaslikni ifodalash» kabi ixtisoslashgan ko'rinishga ega» (I.51,21). Kategoriyaning nomidan ma'lumki, u miqdor ifodalashga ixtisoslashgan morfologik haqiqat. Shuningdek, umumiy grammatik ma'nodagi «noaniq», «aniq», «sifat», «bo'linuvchan», «bo'linmas» kabi unsur bevosita uning markazidagi (mohiyati hisoblanadigan) «miqdor» unsuriga bevosita daxldor emas. Biroq, «bevosita daxldor emaslik» uning mohiyatida ayrichalik, mustaqillik xossasi mavjudligini ko'rsatmaydi. Chunki, deylik, [-lar] shakli miqdorni (ya'ni ko'plikni) ifodalalar ekan, u bir paytda o'z-o'zidan yuqorida zikr etilgan «sifatiy bo'linuvchanlik–bo'linmaslik», «noaniq» belgisini ham ifodalab yuboradi. Demak, shaklda miqdor belgisi har doim sifat belgisi bilan baqamti yashaydi, dialektik bog'lanishda turadi. Chunki, «ma'nolardan birining kuchayishi boshqasining susayishiga, boshqasining kuchayishi birinchisining susayishiga olib keladi» (I.38,158). Masalan, «*Do'konda suvlar bor*» gapida *-lar* shakli miqdor ham, sifatiy belgi (bo'linuvchanlik, tur xil) ham ifodalamoqda. Biroq bunda sifatiy belgi (*har xil suv bor*) ustuvorlik kasb etib, miqdor belgisi kuchsizlanganligi sezilib turadi. Ma'lum bo'ladiki, grammatik shakl umumiy grammatik ma'no tarkibiy qismidan biri – kategoriya umumiy grammatik ma'nosining mohiyatini juz'iyashtirish bo'lsa, boshqasi unga yondosh, mohiyat tarkibiga mansub bo'lmagan, biroq u bilan dialektik yaxlitlik kasb etgan ma'no. Shuning uchun grammatik shakl umumiy grammatik ma'nosi tahlilida sof kategorial (grammatik shakl mansub kategoriya mohiyatiga mansub) va unga yondosh hodisa farqlanishi lozim.

Ayrim tadqiqotlarda shaklning kategorial mohiyatiga yondosh hodisalarni nokategorial ma'no sifatida baholash uchraydi (II.20;II.2). Bunda hodisaga biryoqlama munosabat ko'zga tashlanadi. Chunki nokategorial ma'no sifatida qaralgan hodisa, aynan shu hodisa uchun nokategorial bo'lsa-da, uni mutlaq

nokategorial deb bo'lmaydi. Masalan, zamon shakllari umumiy grammatik ma'nosi tarkibida umumiy grammatik ma'ning kategorial «mag'zi» bilan birgalikda, unga turli xil mayl ma'nolari yo'ldoshlik qiladi. Bu ma'no zamon ma'nosini ifodalovchi shakl uchun nokategorial bo'lsa-da, mayl ifodalovchisi uchun kategorial, ya'ni mayl shakli umumiy grammatik ma'nosining kategorial «mag'zi»ni tashkil etadi. Shu boisdan, umumiy grammatik ma'no tarkibidagi «nokategorial» ma'noni *yondosh ma'no* atamasi bilan berish haqiqatni ma'lum darajada yorqinroq ifodalaydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, *kategorial ma'no* va *yondosh ma'no* terminlari biz tomondan shartli ravishda qo'llanadi. Chunki bir tomondan yondosh bo'lgan ma'no boshqa tomondan kategorial, bir tomondan kategorial hisoblanuvchi mohiyat boshqa umumiy grammatik ma'no tarkibida yondoshlik kasb etadi. Shuning uchun umumiy grammatik ma'no tarkibiy qismidagi u yoki bu unurni kategorial yoki yondosh deb atash mutlaqo shartli bo'lib, bu grammatik shakl umumiy grammatik ma'nosining ikkiyoqlama tabiatga egaligiga ishora qiladi.

Grammatik kategoriyada kategorial va yondosh ma'no sifatii va miqdoriy o'ziga xoslikka ham ega. Ma'lumki, grammatik kategoriya tasnifida ham formal–funktional tahlil usulining «lisoniy birlikning serqirraligi» omiliga tayaniladi (II.6; II.17; I.51). Sh.Shahobiddinova ushbu asosda grammatik kategoriya shakllarining ma'noviy tarkibiga ko'ra tasnifini berar ekan, ularni sodda va murakkab tiplarga ajratadi. Tadqiqotchi sodda kategoriya deganda «formalari o'zlari mansub bo'lgan ma'lum bir kategoriya ma'nolarini va ularga hamroh bo'lgan yondosh ma'nolarni ifodalashga xizmat qilib, butun mohiyati bilan bitta kategoriyaga mansub bo'lgan» kategoriyani tan oladi va bu qatorga son, qiyoslash, kelishik, nisbat, subyektiv munosabat kategoriyalarini kiritadi. Buni u shunday izohlaydi: «Soddalikni bu o'rinda dialektik tushunmoq lozim. Soddalik bu kategoriyalarni ichki dialektik qarama-qarshiliklardan ozod etmaydi. Ammo bu qarama–qarshi tomonlar o'zaro bir–birini taqozo etadi, bir-biridan kelib chiqadi. Masalan, son kategoriyasining ma'nosi miqdoriy va sifatii belgilarning ma'lum yig'indisidan iborat. Bu ikki

ma'noni bir-biridan ajratish imkoni yo'q. Shuningdek, faqat sifatiy, faqat miqdoriy ma'no ifodalovchi boshqa mustaqil kategoriya ham mavjud emas» (I.51,23).

Bundan ma'lum bo'ladiki, olim grammatik shakldagi «nokategorial» ma'no sifatida boshqa grammatik kategoriyalarga xos ma'nolarnigina ajratadi va yondosh ma'no bunday mansublikka ega bo'lmasa, uni «nokategorial ma'no» sifatida qaramaydi. Masalan, kelishik kategoriyasining «so'z birikmasidagi oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lashi», nisbat kategoriyasining «fe'l anglatgan bajaruvchining tavsifini ifodalashi» (I.51,23) kabi.

Murakkab kategoriya sifatida esa bir shaklda turli grammatik kategoriyaga mansub kategoriya tushuniladi. Masalan, egalik kategoriyasida uch xil ma'no mujassamlangan:

1. Lisoniy va nolisoniy egalik munosabatlarini ifodalash (egalik kategoriyasi uchun nokategorial ma'no).
2. Shaxs ma'nosi (egalik kategoriyasi uchun nokategorial ma'no).
3. Son ma'nosi (egalik kategoriyasi uchun nokategorial ma'no)» deyiladi va ular sirasiga egalik, o'zgalovchi, kesimlik kategoriyalari kiritiladi (I.51).

Demak, olimaning kategorial va nokategorial ma'nolarni farqlashida va ular kategoriyalarini ma'noviy tarkibiga ko'ra tasniflashida izchillik mavjud emas. Bu quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

birinchidan, nokategorial ma'no aslida boshqa grammatik kategoriyaga mansub bo'lsa, ajratiladi;

ikkinchidan, agar grammatik shakl «nokategorial ma'no»ga ega bo'lsa, u mansub grammatik kategoriya murakkab kategoriya sifatida qaraladi;

uchinchidan, mohiyatlarini ko'rsatishda grammatik kategoriyalarning substansial tasnifidan kelib chiqilmaydi.

Biz «nokategorial ma'no» qat'iyatida yondosh ma'noning barchasi qaysidir kategoriyaga mansubligini ta'kidlaymiz. Yondosh ma'no morfologik emas, boshqa, deylik, leksik, sintaktik kategoriyaga ham mansub bo'ladi. Faqat kategoriyani

umumiylik sifatida tor – sathiy emas, balki keng – lisoniy mohiyatli mavjudlik sifatida qabul qilish lozim. Chunki «kategorial bo‘lmagan ma’no mavjud emas»(I.38,158).

Ikkinchidan, grammatik kategoriyaning sodda-murakkabligini umumiy grammatik ma’no tabiatidan kelib chiqib belgilamoq lozim. Uni «nokategorial» ma’noga xos grammatik kategoriya mavjudligi asosida qidirish bir hodisani boshqa hodisa asosida belgilashdan o‘zga narsa emas.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, grammatik kategoriya hamisha serqirra va uning umumiy grammatik ma’nosi ham murakkab tuzilishga ega. Faqat o‘ziga xos ma’nodangina tashkil topgan kategoriya umumiy grammatik ma’nosi mavjud emas. Kategoriyada yondosh ma’no borligining o‘ziyoq uni sof, sodda kategoriya deyishga yo‘l qo‘ymaydi. Demak, butun mohiyat e’tibori bilan faqat bitta kategoriyaga mansub kategoriya shakli yo‘q ekan, grammatik kategoriyaning sodda-murakkabligini bu yo‘l bilan belgilash lisoniy holatni obyektiv baholashga to‘siq bo‘ladi va unda sodda kategoriyaning o‘zi bo‘lmaydi.

Kesimlik kategoriyasini murakkab kategoriya sifatida qarash mumkin. Chunki uning har bir tashkil etuvchisi mustaqil grammatik kategoriyalar: shaxs-son, zamon, mayl, tasdiq–inkor. Bu kategoriyalar o‘zida nisbiy qarama-qarshilikni mujassamlashtiradi. Ya’ni ularning har biri kesimlik kategoriyasiga nisbatan shakl, kesimlikdan tashqarida alohida kategoriyadir. Boshqa kategoriyada esa bunday holat kuzatilmaydi. Bu kategoriya murakkabligining yana bir jihati shundaki, sodda kategoriyada grammatik kategoriya va grammatik shakl orasida xususiylik–umumiylik dialektikasi hukmron bo‘lsa, kesimlik kategoriyasi va uni tashkil etuvchilar orasida butun–bo‘lak munosabati mavjud. Butun–bo‘lak munosabati esa mantiqan murakkablikning asosi.

Xo‘sh, kesimlik kategoriyasi murakkab kategoriya ekan, bu kategoriya umumiy grammatik ma’nosi tarkibi qanday va unda kategorial hamda yondosh hodisa qanday belgilanadi? Bu savolga javob berish uchun fikrni ayonroq bo‘lgan leksik asosda dalillashga harakat qilamiz.

Ma'lumki, polisemantik leksema sememalari ikki xil munosabatda bo'ladi:

a) asos – aniq hosilaviylik;

b) asos – noaniq hosilaviylik.

[*qanot*] leksemasining «qushlarning ikki yonidagi uchish a'zosi» sememasi bosh, asos semema bo'lib, «samolyotning ikki yonidagi uchish moslamasi» sememasi asos sememadan chiqqan hosila sememadir.

[*olma*] leksemasidagi «daraxt» va «meva» tushunchalarini ataydigan ikki sememadan qaysi biri asos va qaysisi hosila ekanligini aniqlashning imkoni yo'q. Shu boisdan bunday sememalar yondosh sememalar sifatida qaraladi (II.8).

O'zgalovchi kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi tarkibidagi «fe'lni boshqa so'zga bog'lash va unga ravishlik, sifatlik va otlik xususiyatlarini berish», kesimlik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi tarkibidagi shaxs–son, zamon, mayl va tasdiq-inkor kategoriyalari teng qiymatli mohiyatga ega bo'lib, kategoriyada ularning birortasiga ustuvorlik berish mumkin emas. Chunki o'zgalovchi kategoriya morfologik kategoriyalar sirasida ham tasniflovchi, ham sintaktik kategoriya oralig'ida («oraliq uchinchi» maqomiga egaligi unda ikki xil mohiyatning mujassamlashganligi bilan belgilanadi (II.2,70-72). Bunda umumiy grammatik ma'noning tarkibiy qism («fe'lni keyingi so'zga bog'lash» va «fe'lga ravishlik / sifatlik / otlik belgilarini berish»)larining biri ikkinchisi uchun, ikkinchisi birinchisi uchun yondosh, shu bilan birgalikda, o'z-o'ziga kategorial ma'no hisoblanadi.

Kesimlik murakkab kategoriya bo'lganligining o'zi ham ulardan birortasiga asosiylik maqomi berishga yo'l qo'ymaydi va ularning har biri «gap markazini shakllantirish» umumiy grammatik ma'nosining turli qirralarini o'zida saqlaydi. Shu boisdan, murakkab kategoriyadagi har bir kategoriya yondosh kategoriya, har bir umumiy grammatik ma'no parchasi yondosh ma'no sifatida baholanishi lozim. Bu ma'nolar bir vaqtning o'zida kategorial ma'nolar hamdir. Masalan, *o'qiyapman* gapidagi «birinchi shaxs», «hozirgi zamon», «tasdiq», «aniqlik mayli» ma'nolarining har biri kesimlik kategoriyasi tarkibida yondosh

ma'nolar bo'lib, o'zlari bevosita tegishli bo'lgan kategoriyalar uchun esa nokategorial ma'nodir.

Demak, o'zbek tili grammatik kategoriyalarini umumiy grammatik ma'nosi tarkibiy qismining o'zaro munosabati va tabiatiga ko'ra ikkiga bo'lish mumkin:

a) umumiy grammatik ma'noi tarkibiy qismi o'zaro kategoriallik va yondoshlik tabiatiga ega bo'lgan kategoriyalar (kelishik, son, nisbat, mayl, zamon, bo'lishli-bo'lishsizlik);

b) umumiy grammatik ma'no tarkibiy qismlari o'zaro yondoshlik tabiatiga ega bo'lgan kategoriyalar (o'zgalovchi, kesimlik).

Grammatik shakl umumiy grammatik ma'nosidagi yondosh ma'noni tasniflashda miqdori, qanday sath kategoriyasiga mansubligidan kelib chiqishi lozim bo'ladi: morfologik yondosh ma'no, leksik yondosh ma'no, sintaktik yondosh ma'no, uslubiy yondosh va qorishiq asosli yondosh ma'no.

## 1.2. Kategorial ma'noning turlari

Kategorial va yondosh ma'no munosabatidagi yana bir nisbiy holatni alohida ta'kidlash lozim. Kategorial ma'no grammatik shaklda xususiylashgan grammatik kategoriyaning substansial mohiyati bo'lib, yondosh ma'no qanchalik kuchaymasin va qanchalik susaymasin, baribir kategorial mohiyatini to'la-to'kis yo'qotmaydi. Masalan, *-lar* shakli o'zida son kategoriyasining «miqdor» va «sifat» kategorial ma'nosini ayrim holda o'ziga xos tarzda juz'iyashtiradi: 1. *Tillarimga ko'cholmaydi bo'g'zimdagi ovozim.* (U. Azimov) 2. *Dadamlar keldilar.* Gaplarning birinchisidagi son kategoriyasi shaklini olgan (*tillarimga*) so'zshaklida bu shakl ma'no kuchaytirish vazifasini bajargan bo'lsa, ikkinchi gapdagi (*dadamlar*) so'zshaklida «hurmat» ma'nosi ifodalangan. «Kuchaytirish» va «hurmat» - ushbu holatda *-lar* shakli substansial tabiatiga muvofiq bo'lmagan nokategorial ma'no. – *lar* shaklining kategorial ma'nosi «ko'pliki» bo'lib, bu vaziyatda u bevosita zohir bo'lmagan va nol darajaga tushgandek tasavvur uyg'otadi. Ammo kategorial ma'noning hatto ushbu holatda ham saqlanib qolganligi haqidagi ilmiy dalilni

A.Nurmonov, Sh.Shahobiddinova va boshqalar fikridan bilib olamiz: «Bu hodisa (*tillarimga* – N.M.) odatda [-*lar*] shaklining ma'no kuchaytiruv holati sifatida izohlanadi. Bunday XGM(xususiy grammatik ma'no)ning yuzaga chiqishiga [-*lar*]ning qanday xususiyati sabab bo'ladi? Ma'lumki, ko'p narsa hamisha ko'p yoki yakka narsaga nisbatan kuchliroq, ahamiyatliroq tuyuladi. Shu sababli kuchli e'tibor va ta'kid zarur bo'lgan holatda narsaning miqdorini ko'p qilib ko'rsatishga intilish kuzatiladi. Aslida bitta bo'lgan narsa miqdoran ko'p sifatida tasavvur qilinadi. Yuqoridagi misolda ham shunday holat ko'rinadi. Ya'ni til bitta. Biroq ma'no kuchaytirish maqsadida u ko'pday tasavvur qilinmoqda» (I.39,104).

Buni *-lar* shaklining «hurmat» ma'nosini ifodalagan holatiga ham dalil sifatida qo'llash mumkin bo'ladi.

Grammatik shaklning kategorial va yondosh ma'nosini chegaralashda grammatik kategoriyaning ma'lum bir so'z turkumiga yoki gap bo'lagiga xosligi yuzasidan tasnifi muhim ahamiyat kasb etadi.

Turkiyshunoslikda grammatik kategoriya birinchilardan bo'lib tilshunos H.Nematov tomonidan turkiy tillar yodgorliklari misolida: ma'lum bir gap bo'lagiga xos, ya'ni gap bo'lagini, sintaktik qurilmada tobe yoki hokim uzvni shakllantiruvchi (kelishik, egalik, kesimlik) hamda ma'lum bir turkumgagina xos (son, nisbat, funksional shakllar) kategoriya sifatida ajratildi (I.38). Bu esa jahon tilshunosligida grammatik shaklni leksik va sintaktik turga ajratish g'oyasining rivojlantirilgan ko'rinishi (I.33; yana qarang: II.8). O'zbek tilshunosligida bu dastlab unchalik ommaviylik kasb etmadi.

«O'tgan davr mobaynida o'zbek tili morfologik ko'rsatkichlarining tasnifi yaratildi, ammo xulosalar avvaliga arab, so'ngra rus tili grammatik me'yorlariga asoslangan holda berib kelindi. O'zbek tilida morfologik qo'shimchalarga nisbatan forma hosil qiluvchilar deb qaralib, u ikkiga – so'z o'zgartiruvchi va shakl hosil qiluvchilarga bo'linardi. So'z o'zgartiruvchi sifatida so'zlarni bir-biriga bog'lash vazifasini bajaruvchi egalik, kelishik va shaxs-son qo'shimchalari ajratilsa, shakl hosil qiluvchilarga so'z ma'nosiga biroz ta'sir etadigan, ammo yangi ma'noli so'z

hosil qilmaydigan deb ta'riflanadigan ko'rsatkichlar kiritilardi. Diqqat qilinsa, bu qo'shimchalarning biri sintaktik vazifa bilan, ikkinchisi lug'aviy ma'no bilan bog'liq» (II.2,3).

Ta'lim tizimidagi tub burilishlar tilshunoslik fani oldiga ham muayyan talablarni qo'ydi. Xususan, o'zbek tilshunosligida ilk marta morfologik shakllar yangicha tasnif asosida ilmiy tadqiq etildi. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ta'lim tizimida tub islohot boshlanib, 1999-yil 16-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 390–qarori bilan 1999-2000-o'quv yilidan boshlab «Ona tili» kursi bo'yicha yangi, induktiv mazmunli dastur ta'lim tizimiga joriy etildi. Dastur asosida yaratilgan «Ona tili» darsligi avvalgi darsliklardan tubdan farq qilib, ta'lim mazmunida ona (o'zbek) tilining ontologik qurilishini o'zida aks ettirdi. Yangilangan ona tili darsligida morfologik shaklni lug'aviy, sintaktik shakl hosil qiluvchi sifatida tasniflashda yaqqol ko'zga tashlanadi.

B.Bahriddinova morfologik shakllarning o'ziga xos tasnifini berdi. Olima lug'aviy shakl hosil qiluvchilar sirasiga otlardagi son, fe'llardagi nisbat, bo'lishli–bo'lishsizlik, harakat tarzi, sifatlardagi daraja, sintaktik shakl hosil qiluvchilarga kelishik, egalik, kesimlik, lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchilarga o'zgalovchi kategoriyani kiritdi: «1.Lug'aviy shakl hosil qiluvchilar – leksemalarning lug'aviy ma'nosini nutq talabiga muvofiq ravishda modifikatsiyalaydi. 2.Sintaktik shakllar – leksemalarni muayyan gap bo'lib kelishiga xoslaydi va sintaktik aloqaga kiritish vazifasini bajaradi. 3.Lug'aviy-sintaktik shakllar leksemaning ham lug'aviy ma'nosiga ta'sir qiladi, ham uning sintaktik vazifalarini belgilaydi.

Lug'aviy-sintaktik shakllar tom mohiyati bilan lug'aviy va sintaktik shakllararo oraliq uchinchi maqomiga ega bo'ladi» (II.3,21).

Qarashlar va tasniflardan ma'lum bo'ladiki, morfologik shakllarning UGMsida kategorial ma'no yo sintaktik, yo lug'aviy yohud lug'aviy–sintaktik tabiatga ega bo'ladi.



1. Morfologik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar son, nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, harakat tarzi, daraja kategoriyalarining umumiy grammatik ma'nosida kategorial ma'no lug'aviy asosga ega.

2. Sintaktik shakl hosil qiluvchi kelishik, egalik, kesimlik kategoriyasi shakllarining kategorial ma'nosi sintaktik tabiatga ega.

3. Lug'aviy–sintaktik shakl hosil qiluvchi o'zgalovchi kategoriyasining kategorial ma'nosi lug'aviy–sintaktik tabiatga ega bo'ladi.

Quyida har GK shakllarining yondosh va hamroh ma'nolarini alohida–alohida ko'rib o'tamiz.

### 1.3. Yondosh ma'noning turlari

Grammatik kategoriya umumiy grammatik ma'nosidagi yondosh ma'no tabiati, asos va ildizi asosida farqlanadi.

Aytilganidek, yondosh ma'no – grammatik kategoriya umumiy grammatik ma'nosidagi boshqa hodisalar voqelanishi. Bu hodisalar esa turli sathga mansub bo'ladi. Shu asosda yondosh ma'noni morfologik, leksik, sintaktik turga ajratish mumkin. Sathlararo aloqaning bu o'ziga xos yangi ko'rinishi va u maxsus tadqiq qilinishi lozim.

**Morfologik yondosh ma'no.** Morfologik yondosh ma'noning asosi boshqa bir morfologik kategoriya bo'ladi. Quyidagi gaplarda ajratilgan so'zlardagi morfologik shakllarda yondosh ma'nolar voqelanishlariga diqqat qilamiz:

1. *Shu payt chorbog'dan echki **yetaklab** Dilbar kirib keldi.* (S.Ahmad) (*yetaklab* – tarz)

2. *Muyassar **shosha–pisha** unga kechasi o'ylagan o'ylarini gapira boshlagan edi...*(O.Yoqubov) (*shosha–pisha* – tarz)

3. *Gulsum opa Barnoni bir ko'ray deb buxgalteriyaga **kirdi**.* (O. Yoqubov) (*kirdi* –mayl)

4. *Qarol va mardikorlar tiz cho'kib, qo'llarini qovushtirib o'tirishdi. G'ira–shira tong yorishib **kelayotgan** edi.* (A.Qahhor) (*kelayotgan* – tarz)

5. *Bir kampir Elmurodga o'g'lining do'ppisi bilan ko'ylak va kamzulini kiygizdi.* (P.Tursun) (*kiygizdi* - mayl)

Gaplardagi fe'l so'zshakllarni kuzatamiz. Birinchi gapdagi *yetaklab* so'zshaklining *-b* ko'rsatkichi *-(i)b* invariant ravishdosh shaklining nutqiy ko'rinishi bo'lib, bunda o'zgalovchi kategoriya UGMsiga mansub «fe'lni fe'lga bog'lash» substansial mohiyatini fe'lga «ish harakat tarzini ifodalash» ma'nosini berish bilan birga voqelantirgan. «Harakat tarzi» ma'no bo'lakchasi fe'l harakat tarzi kategoriyasining o'zgalovchi kategoriyasi shaklida yuzaga chiqayotgan kategorial ma'no bilan yaxlitlik kasb etgan. 2– gapdagi *shosha–pisha* so'zshaklida ham «tarz» morfologik yondosh ma'nosi voqelangan. 3–gapdagi *kirdi* so'zshaklida «zamon» umumiy grammatik ma'nosi bilan birga ijro mayli ko'rinishi ham yuzaga chiqqan. Yoki, aksincha, mayl kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi umumiy grammatik ma'nosi voqelanishi «o'tgan zamon» yondosh ma'nosi voqelanishini taqozo etgan. Ma'lumki, «o'tgan zamon davom fe'li» umumiy grammatik ma'no parchasi «*-yotgan edi*» shakliga omixtalashib, u «davom» ma'no bo'lakchasi «zamon» umumiy grammatik ma'nosi ko'rinishi uchun yondosh ma'no. Bunda endi zamon va mayl kategoriyalaridagi kabi munosabat kuzatiladi. Chunki «tarz» yondosh ma'nosi harakat tarzi kategoriyasidagina kategoriallik kasb etadi.

Bunday morfologik yondosh ma'nolarga o'zgalovchi kategoriyasidagi modallik, xususan, uning harakat nomi shaklidagi bo'lishli / bo'lishsizlik, sifatdosh va harakat nomidagi zamon, kesimlikdagi barcha yondosh ma'noni, egalikdagi shaxs–son kabi yondosh ma'noni kiritish mumkin.

Shu o'rinda bir hodisani alohida ta'kidlash lozim. Ma'lum bir morfologik shakl o'zi mansub kategoriya umumiy grammatik ma'nosining muayyan parchasini, ko'rinishini voqelantirishga xoslangan bo'ladi. Masalan, birgalik nisbat shakli nisbat kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini «ish–harakat bajaruvchisining birgaligi» tarzida xususiyashtiradi. Biroq, shu bilan birgalikda, o'zida aniq nisbat uchun xoslangan «bajaruvchi aniqligi» ma'nosini ham yuzaga chiqaradi. Boshqacha aytganda, «birgalik» «aniqlik» bilan yaxlitlik kasb etadi.

Biroq «birgalik» hamisha bu shaklda «aniqlik»ka nisbatan ustuvor va «birgalik» asosiy kategorial va «aniqlik» yondosh ma'no sifatida yuzaga chiqadi. Demak, bir kategoriyaning turli shakli kategoriya umumiy grammatik ma'nosini o'ziga xos tarzda juz'iyashtirishga ixtisoslashgan bo'lib, bir vaqtning o'zida boshqa shakl uchun xos ma'noni ham ifodalashi mumkin. Buni shartli ravishda asosiy kategorial ma'no va yondosh ma'no deyish mumkin.

**Leksik asosli yondosh ma'no.** Leksik asosli yondosh ma'no leksik sath birliklari – ayrim leksema yoki leksemalar guruhlariga xos umumiy kategorial (nokategorial) ma'noning morfologik shakl umumiy grammatik ma'nosidagi aksi. Masalan, nisbat kategoriyasi shakllaridagi o'timli-o'timsizlik yondosh ma'nosi shunday hodisadan biri. O'timli–o'timsizlikning substansial tabiati haqida ilmiy manbalardan quyidagilarni bilish mumkin. Ma'lumki, fe'lda o'timli–o'timsizlik nisbat kategoriyasi bilan zich bog'langanligi, nisbat kategoriyasining o'timli–o'timsizlikka ta'siri, bu hodisalarning dialektik birlikda mavjudligi deyarli barcha tilshunoslar tomonidan ta'kidlanadi. Biroq qarashlar, bildirilgan fikrlar bir–biridan keskin farqlanadi (I.2,15; II.9,16; IV.9,37). Olimlar o'timli–o'timsizlik fe'l hodisasi ekanligi va nisbatni ham qamrab olishini ta'kidlashadi (I.28,182; I.38,83; IV.3,159). Lekin ayrimlar uning fe'l kategoriyasi (I.60,4; I.49,266; II.13,5-8), ba'zilar kategoriya emasligi haqida gapiradilar (I.63,82). «O'timli / o'timsizlik haqida fikr bildirilgan ishlarning barchasida ham fe'llarning o'timli–o'timsizlik ko'rsatkichga ega emasligi haqida gapiriladi. Morfologik ko'rsatkich yo'q ekan, grammatik ma'no haqida ham gapirish mumkin emas» (I.63,82). Haqiqatan ham, «o'timli–o'timsizlik tilda mustaqil kategoriya sifatida mavjud bo'lsa, uning, A.Hojiev ta'kidlaganidek, o'z rasmiy ko'rsatkichlari bo'lishi lozim edi» (I.2,16).

Ma'lumki, lisoniy tizimda fe'l leksema o'timli yoki o'timsiz holda mavjud bo'ladi: *bordi*, *qo'ydi* kabi. Lekin o'timsiz fe'llar ayrim ma'nolarida o'timli (*zavodda ishlamoq – masalani ishlamoq*) bo'lishi mumkin.

O'timli–o'timsizlik fe'l leksema semantik tabiatida mavjud bo'lib, nisbat ana shunga ta'sir qiladi, xolos.

Shuningdek, «nisbat ko'rsatkichlarining vazifasi faqat o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga, o'timsiz fe'lni o'timli fe'lga aylantiradi, deyish masalaga biryoqlama yondashuv bo'ladi» (I.2,17).

«O'timli–o'timsizlik, darhaqiqat, lug'aviy hodisa bo'lib, uning morfologik kategoriya emasligining ikki asosi bor:

a) o'timli–o'timsizlikni ifodalovchi, muntazam ziddiyatlar tizimiga ega shakllar yo'q;

b) ayni bir so'z muntazam ravishda faqat o'timli–o'timsizligiga ko'ra farqlanuvchi hosila shakllarga ega bo'lolmaydi» (I.39,127). Xullas, o'timli–o'timsizlik lug'aviy hodisa ekan, uning morfologiyadagi aksini nisbat kategoriyasi UGMSidagi leksik asosli yondosh ma'no sifatida baholash maqsadga muvofiq (I.3; I.38,18).

Egalik kategoriyasidagi partitiv–qarashlilik, son kategoriyasidagi bo'linuvchanlik-bo'linmaslik, o'zgalovchi kategoriyasidagi ravishlik, sifatlik kabi yondosh ma'nolar ham leksik ildizga ega.

**Sintaktik yondosh ma'no.** Sintaktik yondosh ma'no grammatik shaklning substansial mohiyati bilan birga kelib, so'zshaklining birikuvchanlik imkoniyatiga ta'sir ko'rsatadi. Ortirma nisbat shakli (*kiygizdi*) nisbat kategoriyasiga xos «ish–harakatning subyektga munosabati» UGMSini «fe'l birikuvchanligini belgilash» yondosh ma'nosi bilan yuzuga chiqargan. Fe'l valentligining fe'lga tobelanuvchini belgilashi – bu hokim so'zning tobega munosabati. Hokimning tobega munosabati esa «keyingi so'zni oldingi so'zga bog'lash» kategorial mohiyati bilan uyg'un.

Egalik kategoriyasidagi uning substansial mohiyatiga xos bo'lmagan «oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash» yondosh ma'nosi, nisbat kategoriyasining «fe'l birikuvchanlik imkoniyatini o'zgartirishi», kesimlik kategoriyasidagi «shaxs–sonning kesimni ega bilan muvofiqlashtirishi» kabi yondosh ma'no – sintaktik substansiyaning morfologiyadagi aksi. Aslida «har qanday morfologik shakl o'ziga xos mohiyat bilan yo'g'rilgandir» (I.38,82; yana qarang: II.7; 97).

**Qorishiq asosli yondosh ma'no.** Ma'lumki, ayrim morfologik shakl yondosh ma'no sifatida modal ma'noni ham tashiydi. Masalan, egalik shakllaridagi «sizlash», «sensirash», ko'plik shaklidagi «hurmat», «kesatish», «mensimaslik» kabi ma'nolar shular jumlasidan. Ma'lumki, modal ma'no ijtimoiy omil bilan zich bog'langan bo'lib, tilimizda bu ma'noni ifodalovchi vositalar turli sathlarga mansub. Xususan, G'.Zikrillaev «hurmat» ma'nosini ifodalash uchun uch xil morfologik (-siz, -sizlar, -ngiz, -ngizlar, -laringiz, -(i)ng, -(i)nglar, -(i)ngiz, -(i)ngizlar), lug'aviy (siz, sizlar, o'zingiz, o'z'laringiz), sintaktik (*Karim aka, Ahmad amaki, Haydar ota, hurmatli mehmon, muhtaram ustoz.*) usullar qo'llanishini aytadi (I.19,94).

Modal ma'no – egalik shaklining ayrimi uchun yondosh ma'no. Masalan, «hurmat» - modal ma'noli II shaxs ko'plik shakli uchun «sensirash» doimiy yondosh ma'no. Lekin I va III shaxs ko'plik shakli uchun «hurmat» ifodalash muntazam emas.

Modal ma'no egalik kategoriyasining ayrim shakli uchun yondosh ma'no bo'lib, o'zining asos grammatik kategoriyasiga ega emas. Biroq, o'zbek tilida «hurmat» funksional–semantik maydoni borligini rad etib bo'lmaydi (II.23).

Demak, asosi muayyan bir grammatik kategoriya yoki ma'lum bir sathgagina xos bo'lmagan yondosh ma'noni qorishiq asosli yondosh ma'no sifatida baholash mumkin.

#### **1.4. Nutqiy illyuziya yoki shakllarda hamroh ma'no masalasi**

Nutq lisonga nisbatan behad boyligi, rang–barangligi va o'ta ziddiyatliligi bilan xarakterlanadi. Har bir nutqiy so'zshaklda grammatik shaklning UGMsi bilan birgalikda u birikayotgan so'z, hamroh shakllar, birikma hosil qilayotgan birlik hamda erkin birikuv qoliplari, gap qurilishi, so'zlovchining o'z fikriga munosabati, nutq uslubi va vaziyati kabi qator omillar qorishib, chirmashib shunday bir murakkablikni vujudga keltiradiki, bir qarashda shakldagi qaysi hodisaning qanday mohiyatga tegishli ekanligini aniqlash mushkul bo'lib qoladi. Tilga sistema sifatida

yondashib, lisoniy va nutqiy jihatni izchil farqlayotgan tilshunoslar nutqning behad murakkabligi, lisonning esa o'ta soddaligini alohida uqtiradilar (III.12; I.52; I.2; II.6; II.2; II.7).

Fikrimizni R.Sayfullaeva va boshqalar hammuallifligidagi «Hozirgi o'zbek adabiy tili (sintaksis)» qo'llanmasidan olingan dalil bilan qiyoslaymiz.<sup>5</sup> Ma'lumki, qaratqich kelishigi va egalik shakli bilan hosil qilingan so'z birikmasi–qaratuvchili birikmada turli xil munosabatlar anglashiladi. Qiyoslang:

2-jadval

T/r	So'z birikmasi	Ma'noviy munosabatlar
1.	Salimning qalami	Ega – egalik qilinuvchi narsa
2.	Odamning qo'li	Butun – qism
3.	Ilmning tashabbuskori	Narsa – aloqador shaxs
4.	Odamning yaxshisi	Tur – jins
5.	Uyning tozaligi	Belgi egasi – belgi
6.	Bolaning yig'lashi	Subyekt – uning harakati
7.	Yashashning zavqi	Holat – uning natijasi
8.	Urushning asorati	Jarayon – uning oqibati
9.	E'tiborsizlikning illati	Sabab – natija

Tadqiqotchilar qaratqich kelishigi 50–60 tagacha ma'noga egaligini ta'kidlashadi (I.50,61-88; I.39).

Darhaqiqat, deylik *stolning oyoq'i* birikuvidagi butun va qism munosabati *-ning* va *-i* shakllariga tegishlimi, yoki birikuv qismidan kelib chiqadimi, yohud *stol* va *oyoq* so'zlarining substansial mohiyatiga bog'liqmi degan savollarga bir xil javob kutish qiyin. Masalan, *dadamlar* so'zshaklidagi «hurmat» ma'nosining ifodalovchisini bir qarashda aniqlab bo'lmaydi.

<sup>5</sup> R.Sayfullaeva, B.Mengliev va boshqalar. Hozirgi o'zbek tili (sintaksis): -T.: Universitet, 2006. - 208 b.

Nutqiy hodisada lisoniy imkoniyat qorishgan holda voqelanib, murakkab bir holatni vujudga keltiradiki, buni tadqiqotchi biror bir matoning turli bo‘yoq solingan idishlarga botirib olingan ko‘rinishiga qiyoslashadi. Bunda matoning asl rangini aniqlash qanchalik mushkul bo‘lsa (lekin ilojisiz emas), nutqda voqelangan lisoniy birlikdagi asl mohiyatiga tegishli bo‘lmagan voqelanish bilan substansial xossasi ko‘rinishini ajratish ham tadqiqotchidan mashaqqatli mehnat talab qiladi. Zero, dialektika uqtirganidek, har qanday alohidalikda turli umumiyliklarning xususiy ko‘rinishi qorishgan holda namoyon bo‘ladi hamda tegishli umumiylikning xos ko‘rinishini to‘sib qo‘yadi va, natijada kishi oddiy fahmiy usulda uni aniqlay olmaydi. Deylik, ko‘z oldimizdagi stul ma'lum bir oddiy umumiylikka (aniqrog‘i, stul umumiyligiga) xos alohidalik bo‘lib, unda turli xil umumiylik (xomashyo, yog‘och, plastmassa, metall, bo‘yoq, mato)ning alohidaliklari birgalikda yuzaga chiqqan. Bularning ta'siri o‘laroq, stulning asl substansiyasi voqelanishi, unga xos alohidalik to‘sib qo‘yilgan va bir qarashda uni aniqlab bo‘lmaydi.

Lisoniy umumiyliklarning nutqiy voqelanishida barcha – fonologik, leksik, morfologik, sintaktik, uslubiy va derivatsion omillar o‘z izini qoldiradi. Formal-funksional tilshunoslikda lisoniy umumiyliklarni tiklash va lisoniy umumiyliklarning nutqiy voqelanishi M.Abuzalova, Sh.Shahobiddinova, R.Sayfullaeva, S.Nazarova, M.Qurbonova tadqiqotlari asosida kuzatilar ekan, leksika va sintaksisda bo‘lgani kabi, morfologiyada ham boshqa nomorfologik hodisa morfologik shakl ma’nosi ustida qavatlanib, shakllar sonini behad ko‘paytirishi ma'lum bo‘ladi (II.8,160;). Tilshunoslar ta'kidlashganidek, har bir morfologik shakl nutqda xususiylik sifatida yuzaga chiqar ekan, uning asl ma’nosiga u birikayotgan so‘z, hosil bo‘lgan so‘zshaklga bog‘lanayotgan so‘z, birikuv qoliplari va uslubiy omillari o‘z ta'sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Quyidagi gaplarga diqqat qilaylik:

1. *Yo‘ning ikki tomoniga cho‘zilgan qir yonbag‘irlarini endigina yorib chiqayotgan o‘tlar **qoplagan**.* (P. Tursun)

2. *Seldan keyin g‘o‘zalarni o‘t bosgan, hashorat oralagan.* (H. Nazir)

3. – *Bormadim.*

– ***Borgansan!*** (*Bo‘lmasa kechikmas eding*) (I.64,354).

Manbada birinchi gapda qo‘llangan –*gan* zamon shakli «harakatning bajarilganligi va undan yuzaga kelgan holatning hozir ham mavjud ekanligi» ma’nosini, ikkinchi gapda qo‘llangan zamon shakli «so‘zlovchining o‘zi kuzatmagan, keyin xabardor bo‘lgan harakat», uchinchi gapda esa «harakatning aniq bajarilganligi» ma’nosini ifodalaganligi ta’kidlanadi (I.64,354).

Ma’lumki, adabiyotlarda zamon kategoriyasi «harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalashi», «harakat bajarilish vaqtining nutq momenti munosabatiga qarab, fe’lning uch zamoni farqlanishi: 1) nutq momentigacha bo‘lgan harakat – o‘tgan zamon; 2) nutq momentida bo‘layotgan harakat – hozirgi zamon; 3) nutq momentidan keyin bo‘ladigan harakat – kelasi zamon» (I.64,352) ta’kidlanadi. Ko‘rinadiki, bir shakl turli nutq sharoitiga xoslangan matnlarda zamon ma’nosidan tashqari «harakat natijasida yuzaga kelgan holatning mavjud ekanligi» (1-gapda), «so‘zlovchining o‘zi kuzatmagan, keyin xabardor bo‘lganligi» (2-gapda) va «aniq bajarilganlik» (3-gapda) holati kuzatiladi. Ma’no komponentlari ham mavjud bo‘lib, u muayyan zamon ma’nosining turlanishi sifatida qaraladi. Zamon shaklining ushbu qo‘llanishdagi mazkur «yo‘ldosh» ma’nolari yuzaga chiqishini shakllarni almashtirish natijasidagi holatidan izlashga harakat qilamiz:

*Yo‘lning ikki tomoniga cho‘zilgan qir yonbag‘irlarini endigina yorib chiqayotgan o‘tlar qoplagan / qoplaydi / qoplayapti.*

Bu matnda ham «harakat natijasida yuzaga kelgan holatning mavjudligi» (*qopladi*), «ushbu holatning mavjud bo‘lishi (kelajakda)» (*qoplaydi*) kuzatiladi. Demak, shakllar almashtirilganda ham zikr etilgan ma’no bo‘laklari saqlanib qolaveradi.



Qoplamoq fe'lining o'rniga *o'smoq*, *chiqmoq* fe'llari qo'llanganda ham «natijalilik» saqlanib qolaveradi. Ammo *borgan*, *kelgan*, *o'tgan* so'zshakllarida – *gan* shakli «yuzaga kelgan holatning mavjudligi» ma'nosini voqelantirmaydi.

Demak, yo –*gan* shakli umumiy grammatik ma'nosi tarkibida mavjud «harakat natijasida yuzaga kelgan holatning hozir ham mavjudligi» ma'no komponenti ma'lum bir so'zlar bilan birikkanda voqelanib, boshqa so'zlar tarkibida yuzaga chiqmaydi, yoki bu ma'no ba'zi leksemalar semik tarkibida mavjud bo'lib, boshqalari bunga ega emas.


S.N.Ivanov o'zining o'zbek tilidagi –*gan* shakliga bag'ishlangan tadqiqotida fe'llarni tasniflar ekan, –*gan* shaklini olgan barcha fe'llar «mutlaq yoki nisbiy tugallanganlik» hamda «holat» (bizningcha, harakat natijasi – N.M.) xarakteriga ega bo'lishini ta'kidlaydi (I.24,140-142). Boshqacha aytganda, «tugallanganlik» ma'nosi ba'zi fanlar guruhida «harakatning natijasi» tushunchasi bilan bog'lanadi (chegarali fe'llar), boshqa guruh fe'llar esa harakatning natijasiga befarq munosabatda bo'ladi (chegarasiz fe'llar) (I.24,42). Chegarasiz fe'llar «holat – davomiylik» ma'nosiga ega bo'lib, ular uzluksiz harakatni ifodalaydi: «*Xolmurod yulduzlar miltillagan osmonga qaradi*» (P. Tursun) (II.8,200).

Ko'rinadiki, biz yuqorida tahlilga tortgan *qoplamoq* fe'li ham chegarasiz fe'l bo'lganligi bois –*gan* ko'rsatkichi bilan shakllangach bu ko'rsatkich ma'nosiga uning ma'noviy tarkibidagi «harakatning davomiyligi» ma'nosi qorishib, shakl umumiy grammatik ma'nosini qorishtirgan va zamon ma'nosi boshqa hodisa yordamida turlangan. Demak, –*gan* shakli «so'zlovchi bevosita kuzatmagan o'tgan zamon» ma'nosiga ega bo'lib, zamon ma'nosi ottenkasida boshqa ma'nolar nokategorial, zamon kategorial ma'nosi ustida qavatlanuvchi «begona» ma'no sanaladi. –*gan* shakli –*di* shakli kabi kesim vazifasida kelgan hollarda *kecha*, *o'tgan yili* kabi so'zlarni –*gan* kengaytiruvchisi sifatida qabul qiladi. Biroq, –*di* shakli fe'l kesim *hozir* so'zini hol sifatida qabul qilgani holda, –*gan* shaklli fe'l bunday xususiyatga ega emas. Qiyoslang:

1. *Hozir keldi / o'qidi / yozdi.*

## 2. Hozir kelgan / o'qigan / yozgan.

Ko'rinadiki, ikkinchi birikuv g'ayrime'yoriy. Bu esa *-gan* shaklining yaqin o'tgan zamon ma'nosini ifodalay olmasligiga bog'liq bo'lib, bunga ko'ra mazkur shakllar noto'liq ziddiyatda turadi va bunda ziddiyat belgisi «uzoq o'tgan zamonni ifodalagan» bo'ladi.



Ziddiyatda *-di* shakli mo'tadil belgili a'zo sanaladi. *-gan* shakli esa «o'tgan zamon» umumiy grammatik ma'nosini «uzoq o'tgan zamon» tarzida xususiylashtirishidan kelib chiqadi va bu kategorial ma'nodir.

Shuningdek, adabiyotlarda *-(i)b* affiksli ravishdoshni shaxs–son bilan tushlash orqali ham:

- a) o'zgan eshitib bilganlik;
- b) keyin xabardor bo'lganlik

ma'nolari ifodalanishi ta'kidlanadi (I.64,254) va bunga «1) *Eshitishimga qaraganda, Qo'chqor qaytib kelmabdi.*2) *Tosh yelkasiga tushibdi.*» misollari keltiriladi. Birinchi gapdagi «*eshitishimga qaraganda*» qismi olib tashlansa, har ikkala gapdan ham «harakatning bajarilgandan keyin xabardor bo'lganlik» ma'nosi uqiladi. Demak, mazkur shaklga xos birinchi ma'nodagi «o'zgan eshitib bilganlik» bo'lakchasi bog'lanayotgan *eshitishimga qaraganda* so'zshakli ta'sirida vujudga kelgan zamon UGMsiga xos bo'lmagan nokategorial ma'no o'zga (ya'ni sintaktik) hodisadir.

Ma'lumki, nutqiy parchadagi substansial jihatlarni ajratish tamoyili asosida ish yuritish grammatik shakldagi kategorial va nokategorial ma'noni farqlash, nutqdagi qorishiq nutqiy hodisa ta'sirida tug'iladigan «aldamchi» tasavvurdan uzilish imkonini beradi.

Ko'rinadiki, grammatik shakl o'z umumiy grammatik ma'nosiga mansub kategorial va yondosh ma'nolardan tashqari ikki xil ma'noni nutqda voqelantiradi:

- 1) birga qo'llanayotgan birlik ta'sirida hosil bo'layotgan ma'no;
- 2) o'ziga xos bo'lmagan, ammo birga qo'llanayotgan yo'ldosh birlikning ta'sirida ham vujudga kelmagan ma'no.


Bu ma'nolarni **hamroh ma'no** atamasi bilan nomlashni ma'qul ko'rdik. Tilshunoslikda hamroh ma'no atamasi qo'llangan bo'lib, u ko'p hollarda GKning «nokategorial» ma'nosi atamasiga muqobil ravishda ishlatilgan (I.40,146).

Hamroh ma'no, avvalo, nutqiy bo'lib, empirik yondashuvda u o'ziga xos bo'lmagan shaklga xos qilib qo'yilgan va shu boisdan, bu bosqichda grammatik shaklning ma'nosi behad «ko'paytirib» yuborilgan. Bir qarashda ma'lum bir shaklga xos tuyulgan, aslida boshqa mohiyatga mansub bo'lgan bunday nutqiy hodisa grammatik illyuziya (aldash)ni vujudga keltiradi.

Demak, grammatik shakllarda ikki xil hodisa farqlanadi:

- a) lisoniy hodisa;
- b) nutqiy hodisa.

Lisoniy hodisa grammatik shakl umumiy grammatik ma'nosidagi yondosh ma'no bo'lib, u kategorial ma'no bilan dialektik yaxlitlik kasb etadi. Bu hodisasiz grammatik shakl umumiy grammatik ma'nosidagi kategorial ma'noni voqelantira olmaydi. Nutqiy hodisa sifatidagi hamroh ma'no esa grammatik shakl umumiy grammatik ma'nosiga daxldor bo'lmay, sof nutqiy hodisadir. Hamroh ma'no kategorial ma'no bilan dialektik bog'lanmagan va uning nutqqa chiqishi umumiy grammatik ma'no tomonidan belgilanmagan. U yuzaga chiqishi ham, chiqmasligi ham mumkin.



Yondosh va hamroh ma'no munosabatini quyidagicha berish mumkin:

- lisoniy – nutqiy
- barqaror – o'tkinchi
- UGMga daxldor – UGMga daxlsiz
- ijtimoiy – individual

Bir shakl uchun yondosh bo'lgan ma'no turli boshqa hodisa uchun hamroh, bir shakl uchun hamroh bo'lgan ma'no boshqasi uchun yondosh ma'no sifatida yuzaga chiqishi mumkin. Masalan, «hurmat» ma'nosi II shaxs ko'plik egalik shakli uchun, «sensirash» ma'nosi esa II shaxs birlik shakli uchun yondosh ma'no bo'lsa,

«hurmat» ma'nosi son kategoriyasining *-lar* shakli, egalik kategoriyasining III shaxs ko'plik shakli uchun hamroh ma'no hisoblanadi.

Yondosh ma'noga nisbatan hamroh ma'no, nutqiy in'ikos bo'lganligi tufayli, behad rang–barangligi va ziddiyatliligi bilan ajralib turadi. Keyingi bobda uning turlari haqida so'z boradi.

### 1.5. Hamroh ma'noning turlari

Hamroh ma'no ham yondosh ma'no kabi o'z ildiz va asosiga ko'ra farqlanadi. Chunki u ham, aytilganidek, grammatik shakl uchun o'zga hodisa. O'zga hodisa esa, ma'lumki, shakl umumiy grammatik ma'nosiga xos bo'lgan har qanday lisoniy, qolaversa, nolisoniy mavjudlik. Hamroh ma'noni, yondosh ma'noda bo'lgani kabi, morfologik, lug'aviy, sintaktik, uslubiy hamda qorishiq asosli turlarga ajratishni ma'qul ko'rdik. Biz grammatik shakldagi nutqiy ma'no ikki xil bo'lib, birinchisi grammatik shaklda ifodalanayotgandek tuyuluvchi, aslida yondosh birliklarga xos ma'noni grammatik illyuziya sanab, uni tadqiq manbaimizdan chetda qoldirganimizni, tahlilga faqat ikkinchi tur, ya'ni biz tekshirayotgan grammatik shakl ma'lum bir nutq sharoiti va vaziyatidagina ifodalashni o'z zimmasiga olgan ma'nolarni topganimizni yana bir bor ta'kidlashni o'rinli deb bilamiz.

**Morfologik hamroh ma'no.** Morfologik hamroh ma'nolar orasida yana farqlovchi chiziq o'tkazish mumkin. GShdagi ayrim hamroh ma'no morfologik kategoriya doirasida bo'lsa, ayrimi grammatik shakl mansub grammatik kategoriyaga xos bo'ladi. Bu ma'no grammatik shakl umumiy grammatik ma'nosiga mansub bo'lsa–da, lekin u buni ifodalashga xoslanmagan, nutq vaziyatidan kelib chiqib, ba'zan bu mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi mumkin. Qiyoslang:

1. *Aqllari bormi? – ukasiga istehzoli kuldi Salim.*
2. *U kishining fikrlari bizga ma'qul..*

Birinchi gapda *aqllari* so'zshaklidagi *-lari* egalik shakli «kesatish» ma'nosi ham (aslida *aqling*), shuningdek, shakldan II shaxs, birlik ma'nosi ham

anglashilmoqda. Kesatish egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosiga daxldor emas. Lekin «II shaxs birlik» kategoriyaning *-(i)ng* shakliga xos kategorial ma'no bo'lib, *-lari* shakli bu ma'noni ifodalash uchun xoslanmagan va unga vaqtincha «yopishgan» hodisa hisoblanadi. Uning bunday xususiyatga egaligi ushbu «noqulay» ifodalovchi bilan nutqqa chiqishi uchun zarur nutqiy sharoit, bog'liq qurshov talab qilayotganligi bilan ham belgilanadi. Zero, gapdan «ukasiga istehzoli kuldi Salim» muallif gapi olib tashlansa, *-lari* shaklidan anglashilayotgan ushbu hamroh ma'no uqilmay qoladi. Son kategoriyasi ko'plik shakli *-lar* uchun «birlik», nisbat kategoriyasi aniq nisbat shakli uchun «o'zlik», mayl kategoriyasi buyruq-istak mayli *-sin* shakli uchun «shart» va hokazo ma'nolardan sanaladi.

Son kategoriyasi [0] shakli orqali ifodalanadigan «birgalik» (nisbat umumiy grammatik ma'nosiga xos) o'zgalovchi kategoriyasidagi «tarz-tus» (harakat tarzi), «tasdiq-inkor» (kesimlik kategoriyasi), «zamon» (zamon kategoriyasi), zamondagi «istak», «shart» ma'nolari umuman boshqa morfologik kategoriyaga xos hamroh ma'no hisoblanadi.

**Leksik hamroh ma'no.** Leksik hamroh ma'noning substansiyasini, ildizini leksik sathdan qidirish lozim. Leksik hamroh ma'noni ma'lum bir muayyan leksik sememasining grammatik ma'no sifatida juz'iy lashuvi sifatida qarash ma'qul emas. Ular ma'lum bir leksik guruh, ya'ni so'z turkumi umumiy ma'nosiga xos nutqiy ma'no hisoblanadi.

Son kategoriyasining *-lar* ko'plik shakli, ayrim holda predmetning noaniq ko'pligini ifodalash bilan birgalikda, ularning xilma-xilligi, turli-tumanligi ma'nosini ham bildiradi. Masalan:

1. *Ota-ona, oshna-og'aynilarni sog'inib, yurak-bag'rimiz qon ezilib yuraveraylik.* (J.Abdullaxonov)

2. *-Hammasi bo'ladi, -dedi u o'ziga, -bog'lar ham, gullar ham, to'y-tomoshalar ham.* (J.Abdullaxonov)

«Bu yerda *oshna-og'aynilar* – «ko'p va har xil» *oshna-og'ayni, to'y-u-tomoshalar* – «ko'p va har xil» to'y-tomoshalar» (I.54,134).

O‘zbek tilida bu ma’no – har xil birlik (*turli, turli-tuman, xilma-xil, rang-barang, turfa* kabi leksik birlik)dan iborat lug‘aviy–ma’noviy guruhning umumiy arxisemasi. Shu boisdan, *-lar* ko‘plik shaklidagi mazkur hamroh ma’noni leksik mohiyatning son kategoriyasi voqelanishidagi aksi deyishga asoslar yetarli.

Kelishik shakllaridagi «sabab», «maqsad», «qiyos», «belgi», «tenglik», son kategoriyasi shakllariga xos «juftlik», «qurshov», nisbat shakllaridagi «galma–gal bajarish», «o‘rin–joy almashtirish» ma’nolari ana shular sirasiga mansub.

Umumiy omilning ta'siri natijasida shakllarda «kuchaytiruv» (*-lar* ko‘plik son shakli) «kesatq» (egalik kategoriyasi I, II, III shaxs ko‘plik shakllar) mayl kategoriyasidagi turli xil uslubiy ma’no vujudga keladi.

**Qorishiq asosli hamroh ma’no.** Qorishiq asosli hamroh ma’noning ildizini bir sathdan qidirib bo‘lmaydi. Masalan, son kategoriyasidagi «aniqlik», «shaxs», «taxmin», «hurmat», nisbat shaklidagi «o‘xshatish», mayl kategoriyasidagi «istak» kabi ma’no bir sathgagina mansub asosga ega bo‘lmasdan, ularni barcha sathda o‘z birligi mavjud funksional–semantik maydondan izlash lozim bo‘ladi.

Quyida o‘zbek tili grammatik kategoriyalari grammatik ma’nolari tarkibini jadvallarda beramiz.

Egalik kategoriyasi mohiyatan sintaktik kategoriya bo‘lib, «keyingi so‘zni oldingi so‘zga bog‘lash» uning kategorial tomonini tashkil etadi. «Shaxs», «partitiv munosabat», «son», «qarashlilik», «hurmat», «sensirash» ma’nolari yondosh ma’no bo‘lib, ayrim shakllarda belgilangan, boshqalarida belgilanmagan tarzda namoyon bo‘ladi. «Hurmat», «kesatish» va «sensirash» ba’zi shakllarda hamroh ma’no sifatida ham voqelanishi mumkin. Uni jadvalda quyidagicha berish mumkin:

		Ma'no ko'rinishlari	Birlik			Ko'plik		
			-im	-ing	-i/si	-imiz	-ingiz	-lari
Ma'no tiplari	Katego- rial ma'no	Keyingi so'zni						
		oldingi so'zga bog'lash	+	+	+	+	+	+
	Yondosh ma'no	Shaxs	+	+	+	+	+	+
		Partativ munosabat			+			+
		Son	+	+	0	+	+	0
		Qarashlilik	+	+	+	+	+	+
		Hurmat					+	
		Sensirash		+				
	Hamroh Ma'no	Hurmat						+
		Kesatish				+	+	+
Sensirash				+				

Kelishik kategoriyasida esa «oldingi so'zni keyingi so'zga bog'lash» kategorial ma'nosi har bir shaklda turlicha yuzaga chiqadi. Bosh kelishikda bu ma'no to'lig'icha namoyon bo'lib, boshqa shakllarda ayri-ayri voqelanadi. Masalan, «Oldingi ismni keyingi ismga bog'lash» xususiyatlashmasi bosh, qaratqich va jo'nalish kelishigida, «oldingi ismni keyingi fe'lga bog'lash» bosh, tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishiklarida, «oldingi fe'lni keyingi fe'lga bog'lash» barcha kelishikda, «keyingi ismni oldingi ismga bog'lash» jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishiklarida, «ravishni fe'lga bog'lash» barcha kelishikda, «oldingi ismni ravishga bog'lash» tushum kelishigidan boshqa shakllarda ifodalangan. Kelishik shakllarida yondosh va hamroh ma'no tubdan farqlanadi.



«Atash», «tur», «oʻrin», «subyekt», «payt», «xoslik», «oʻxshatish», «bir holatdan boshqa holatga oʻtish», «maqsad», «sabab», «qiyos», «qism», «belgi», «tenglik» kabi maʼnolar hamroh maʼno boʻlib, ulardan aksariyatini yondosh maʼno sirasida kuzatmadik.

4-jadval

		Maʼno koʻrinishlari	Kelishiklar					
			B.k.	Q.k. -ning	T.k. -ni	J.k -ga	Oʻ.p. k. -da	Ch.k. -dan
UGM qismlari	Kategorial maʼno	Oldingi ismni keyingi ismga bogʻlash	+	+	-	+	-	-
		Oldingi ismni keyingi feʼlga bogʻlash	+	-	+	+	+	+
		Oldingi feʼlni keyingi feʼlga bogʻlash	+	+	+	+	+	+
		Keyingi ismni oldingi ismga bogʻlash	-	-	-	+	+	+
		Oldingi feʼlni keyingi ismga bogʻlash	+	+	+	+	+	+
		Ravishni feʼlga bogʻlash	+	+	+	+	+	+
		Oldingi ismni ravishga bogʻlash	+	+	-	+	+	+

	Yondosh ma'no	Aniqlik	+	+	+			
		Noaniqlik	-					
		Chegara				+		+
		O'rin-payt					+	
		Yo'nalish				+		
		Obyekt			+		+	
Bog'liq qurshovda voqelansa	Hamroh ma'no	Atash	+					
		Tur	+					
		O'rin	+					
		Subyekt	+	+	+			
		Payt	+					
		Xoslik	+					
		O'xshatish	+					
		Bir holatdan ikkinchi holatga o'tish	+			+		
		Maqsad				+		
		Sabab						+
		Qiyos						+
		Qism						+
		Belgi	+					+
		Tenglik	+			+		
Evaz J.k.	+							

Son kategoriyasi kategorial ma'nosi nosintaktikligi bilan xarakterlanishi qayd etildi. Unda «birlik», «ko'plik» kategorial ma'no bo'lib, birlik son uchun ba'zan ko'plik, ko'plik son uchun ba'zan birlik hamroh ma'no sifatida yuzaga

chiqadi. «Aniqlik», «noaniqlik», «bo‘linuvchanlik», «bo‘linmaslik», «jamlik» grammatik ma’nolari yondosh ma’no sifatida nol shaklda har doim, *-lar* shaklida esa «aniqlik», «bo‘linmaslik» ma’nolari yondosh ma’no sifatida voqelanmaydi. Buni jadvalda quyidagicha berish mumkin:

5-jadval

		Ma’no turlari	GK shakllari	
			[0]	[-lar]
Ma’no tiplari	Kategorial ma’no	Birlik	+	-
		Ko‘plik	+	+
	Yondosh ma’no	Aniqlik	+	-
		Noaniqlik	+	+
		Bo‘linuvchanlik	+	+
		Bo‘linmaslik	+	-
	Hamroh ma’no	Xil	-	+
		Hurmat	-	+
		Qurshov		+
		Taxmin		+
		Kuchaytiruv		+
		Juftlik	+	+
		Birgalik	+	+
		Shaxs	+	+
Birlik			+	
Aniqlik			+	

Kesimlik kategoriyasi ma’nolarini berishda uning murakkab kategoriyalik tabiatidan kelib chiqildi. Kesimlik kategoriyasining tarkibini tashkil etuvchi shakllarning barchasida nol shaklli a’zo bo‘lib, ularda boshqa shakllar ma’nosi sezilib turadi. Masalan, zamon, shaxs-son, tasdiq-inkor, mayl ma’nolaridan barchasi nol shaklda yuzaga chiqishi mumkin. Turkiy tillarda nol shakl masalasi muammoli bo‘lib,

uning tabiatini kategorial ma'no tarkibi nuqtai nazaridan tadqiq qilish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shuningdek, kesimlikning murakkab shakl sifatida tarkibiy qismlariga munosabati, tarkibiy qismlarning kesimlik va nokesimlik holatida voqelanishidagi xususiy va umumiy holatlar ham tadqiqini kutmoqda.

Ta'kidlanganidek, «gap kesimini shakllantirish» kategorial ma'nosi har bir shaklda «parchalanadi». Shakl «nollashganda» ifodali shakllarda uni belgilashga intilish kuchayadi. Masalan, buyruq mayli kesimlik tarkibida kesimlikning boshqa ma'nolarini o'ziga yondosh ma'no sifatida namoyon qiladi:

**6-jadval**

		Ma'no turlari	Shaxs-son	Zamon	Tasdiq-inkor	Mayl
<b>Ma'no tiplari</b>	<b>Kategorial ma'no</b>	Gap kesimni Shakllantirish	+	+	+	+
	<b>Yondosh ma'no</b>	Shaxs-son	+			
		Zamon		+		
		Tasdiq-inkor			+	
		Mayl				+
	<b>Hamroh ma'no</b>	Subyektiv munosabat	+	+	+	+
		Uslubiy ma'no				+
		Shaxs ko'chishi	+			
		Zamon ko'chishi		+		
		Tasdiq orqali inkor				+
		Inkor orqali tasdiq				+

Nisbat kategoriyasi tarkibidagi kategorial ma'no ish-harakatning subyektga munosabati tarzida namoyon bo'ladi: «subyektning aniqligi» (aniq nisbat), «subyektning majhulligi» (majhul nisbat), «subyektning birgaligi» (birgalik nisbati), «harakatning bevosita subyektga o'tishi» (o'zlik nisbati), «harakat bajaruvchisiga undash, tazyiq» (orttirma nisbat) kabi. Bu ma'nolar «o'timli-o'timsizlik», «son», «harakatning obyektga munosabatini o'zgartirish», «fe'l valentligiga ta'sir qilish» kabi yondosh ma'nolardan biriga qorishiq holda yuzaga chiqadi. Buni jadvalda quyidagicha berish mumkin:

**7-jadval**

		Ma'no turlari	Aniq nisbat	O'zlik nisbati -n (-in), -l (-il), -ish, -lan	Majhul nisbat -l (-il), -n(-in)	Birgalik nisbati -sh (-ish), -lash	Orttirma nisbat -t,-tir, -dir, -ar, -ir, -qiz, -giz (-qaz, -kaz, -g'az, -g'iz, -kiz) -iz, -sat
Ma'no tiplari	Kategorial ma'no	Subyektning aniqligi	+				
		Subyektning majhulligi			+		
		Subyektning birgaligi					+
		Harakatning bevosita subyektga o'tishi		+			
		Harakat bajaruvchisiga undash, tazyiq					
	Yondosh ma'no	O'timli-o'timsizlik		+	+		+
		Son		+	+	+	+
		Harakatning obyektga munosaba-		+	+		+

<b>Ham-roh ma'no</b>	tini o'zgartirish					
	Fe'l valentli giga ta'sir qilish		+	+		+
	Shaxssizlik		+			
	Birgalik-ko'plik				+	
	O'xshatish		+			
	So'z yasash		+	+	+	+
	Uslubiy buyoq			+		
	Galma-gal bajarish				+	
	O'rin-joy almashti-rish bilan bog'liq ma'no			+		
	Daraja		+	+	+	

O'zgalovchi kategoriyaning kategorial ma'nosi sintaktik, yondosh ma'nosi morfologik tabiatga ega bo'lib, bunday xususiyat boshqa birorta grammatik kategoriyaga xos emas. Uning hamroh ma'nosi tilshunoslikda xususiyy grammatik ma'no sifatida o'rganilgan. O'zgalovchi kategoriyasi shakllari ma'no tarkibining umumiy manzarasi quyidagicha:

## 8-jadval

		Ma'no turlari	Ravishdosh	Sifatdosh	Harakat nomi
			-(i)b, -roq, -y, -gina,-a, -gani, -gach, -guncha	-(a)r (-mas), -vchi, -gan	-(i)sh -(u)v -moq
Ma'no tiplari	Kategoral ma'no	(Fe'lni fe'lga bog'lash) ravishlik	+		
		(Fe'lni otga bog'lash) sifatlik		+	
		(Fe'lga otlik berish) Ot vazifasini bajarish			+
	Yondosh ma'no	Holat	+	+	
		Atributiv belgi		+	
		Harakatni statiklashtirish			+
	Hamroh ma'no	Payt	+	+	-
		Miqdor	+	-	-
		Modallik	+	+	
		Tarz-tus	+	+	+
		Tasdiq-inkor			+

Boshqa lisoniy birliklarda bo'lgani kabi grammatik shakllar umumiy grammatik ma'nosi ham murakkab tarkibli bo'ladi. Umumiy grammatik ma'no murakkab tarkibli bo'lishining umumlingvistik qonuniyati tilning nutqda yaxlit voqelanishi, unda turli sath hodisalari qorishib ketishi, bu esa nutqiy hodisalar sintezi asosida yuzaga keluvchi lisoniy umumiyliklarning murakkab tarkibli bo'lishiga olib kelishidir. Nutqiy grammatik ma'no tarkibi kategorial, ya'ni

substansial, yondosh va hamroh ma'nodan iborat bo'lib, ulardan substansial va yondosh ma'no lisoniy xarakterga ega va hamisha dialektik bog'liqlikda, hamroh ma'no esa nutqiy xarakterga ega. Boshqacha aytganda, kategorial ma'no grammatik shaklning substansial mohiyati bo'lib, yondosh ma'no kategoriya umumiy grammatik ma'nosida mavjud va kategorial ma'no bilan dialektik bog'langan lisoniy ma'no hisoblanadi.

Yondosh ma'no – aslan qaysi sathga tegishliligiga qarab leksik yondosh ma'no (asl substansiyasi leksik sathga mansub), morfologik yondosh ma'no (asl substansiyasi morfologik sathga mansub), sintaktik yondosh ma'no (asl substansiyasi sintaktik sathga mansub) va uslubiy yondosh ma'no (asl substansiyasi uslubiy me'yorga mansub) farqlanadi. Bular esa kategoriyaning leksik-grammatik, sintaktik, uslubiy grammatik kabi turlarga egaligidan kelib chiqadi va ularni shu tarzda tasniflash uchun asos bo'ladi.

Hamroh ma'no – kategorial ma'no bilan dialektik bog'liq bo'lmagan, ba'zan namoyon bo'lib, ba'zan yuzaga chiqmaydigan, uning yuzaga chiqishi matn va nutq sharoiti bilan belgilanadigan ma'no. Hamroh ma'noning ham leksik hamroh ma'no (asl substansiyasi leksik sathga mansub), morfologik hamroh ma'no (asl substansiyasi morfologik sathga mansub), sintaktik hamroh ma'no (asl substansiyasi sintaktik sathga mansub) va uslubiy hamroh ma'no (asl substansiyasi uslubiy me'yorga mansub) kabi turlarini farqlash mumkin. Biroq bu xususiyatlarga qarab kategoriyalarning yuqoridagi turlarini ajratish faqat hodisalarga tayanib ish ko'rish ekanligini ta'kidlash lozim.



## **2-BOB. ZAMON KATEGORIYASI UMUMIY MA'NOSI TARKIBI**

### **2.1. Zamon va mayl kategoriyalari munosabati**

Zamon va mayl kategoriyalari shaxs–son va tasdiq-inkor kategoriyalari bilan bir butunlikda kesimlik kategoriyasini tashkil etadi. Bu kategoriyalarning o‘zaro zich aloqadorligi va dialektik yaxlitligi bu kategoriyaning har biriga mansub shaklni, ularning kategorial va nokategorial ma’nosini izchil farqlashni qiyinlashtiradi. Shu boisdan ko‘plab tadqiqotlarda zamon shakli mayl kategoriyasi ma’nosidan bo‘linmagan holda tadqiq etiladi va kategoriyalararo bog‘liqlik barcha tilshunoslar tomonidan tan olinadi (I.12; III.5; III.6; I.22; I.27; III.9; III.10; III.15; II.12; I.43; V.1; IV.11; I.52; I.54; I.61; III.19).

O‘zbek tilida, boshqa turkiy tillarda bo‘lgani kabi, zamon va mayl ma’nosining aloqadorligi o‘ta kuchli bo‘lib, buni tilimizning o‘ziga xos xususiyatidan biri sifatida baholash mumkin. Shu boisdan ayrim tilshunoslar bu kategoriyalarning bir–biri bilan zich aloqadorligini ta’kidlasa (I.38,107), ayrimi uni ajralmas butunlik sifatida qarash lozimligi tarafdori (I.21,136; I.39,102). «Bu xil fikrlar zamon kategoriyasi harakatning nutq momentiga, mayl kategoriyasini esa ayni ish–harakatning voqelikka munosabatini ifodalashi natijasidir» (I.39,102). «Bir kategoriya (masalan, zamon) ma’nosiga boshqa kategoriya (masalan, mayl, tarz) ma’nosi qavatlanadi» (I.38,107).

Aslida har bir kategoriya nisbiy mustaqil mikrotizim bo‘lib, o‘ziga xos ifoda shakliga muvofiq mazmun rejasiga ega. Chunki, ko‘pincha, ular bir–birini taqozo etgani holda, ba’zan ayrim–ayrim ifodalovchilariga ham ega.

M.Qurbonova grammatik shakllangan gaplarda kesim va unga xos ma’nolarning ifodalanishi xususida fikr yuritib, quyidagilarni keltiradi: «Tilimizda kesimlik qo‘shimchalarining quyidagi turlari mavjud:

1. Kesimlik kategoriyasining tarkibiy ma’noviy qismlari sinkretik, ajralmas shaklda bitta moddiy ko‘rinishda birikkan qo‘shimchalar:

**M Z T Sh**

**o'qi – y**

2. Kesimlik qo'shimchasi tarkibida tasdiq–inkor, mayl, zamon ma'nolari qorishiq ko'rinishida bir ko'rinishida bir ko'rsatkich bilan, shaxs-son ma'nosi boshqa bir qo'shimcha bilan beriladi:

**MZT Sh            MZT Sh            MZT Sh**  
*bor – sa – ng,    kel – sa – ngiz,    ol – di – m.*

3. Kesimlik qo'shimchasi tarkibida tasdiq–inkor alohida qo'shimcha bilan, mayl, zamon, shaxs–son qorishiq ravishda bitta qo'shimcha bilan beriladi:

**T MZSh            T MZSh**  
*bor – ma – di,            bor – ma – y.*

4. Kesimlik qo'shimchasi tarkibida tasdiq–inkor alohida, shaxs–son ma'nosi alohida qo'shimcha bilan, mayl, shaxs–son, zamon esa bitta qo'shimcha bilan beriladi:

**T MZ Sh**  
*ol – ma – di – ngiz*

5. Kesimlik kategoriyasining tasdiq–inkor, mayl, zamon, shaxs-son ma'no tarkibiy qismlaridan har biri (hatto shaxs-sondagi shaxs va son ma'nolari ham) alohida – alohida qo'shimchalar bilan ifodalanadi:

**T M Z Sh**  
*ol – ma – sa – ydi – ngiz»*

(I.56,47; yana qarang:I.40,43)

Ma'lum bo'ladiki, mayl–zamon kategoriyalarining zichligi ular ma'nolarining sinkretik ifodalanishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Biroq ularning nisbiy mustaqilligi ham mavjud bo'lib, bu yuqorida keltirilgan 5–punktida namoyon bo'lgan: *olganda edi, olsam edi, olmoqchi bo'lyapman, olgandirsiz* kabi so'zshakllarda ham bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi.

Zamon kategoriyasida shaklning o'rnini belgilashda «zamon» ma'nosi kategorial bo'lib, «tarz», «mayl» ma'nosi nokategorial, ya'ni «mayl» ma'nosi yondosh, «tarz» ma'nosi hamroh ma'no hisoblanadi. Zamon shaklida yuzaga chiqqan mayl ma'nosi tizimida zamon ma'nosi ikkinchi darajali ahamiyat kasb etib, mayl ma'nosi bo'rtadi. «Tarz» ma'nosi bunda ham hamroh ma'noligicha qolaveradi.

Zamon va mayl ma'nosi shu darajada zich bog'langanigini, aksariyat holda maylning ma'noviy xususiyatini zamonsiz, zamon ma'nosini mayl ma'nosidan ajratib talqin qilib bo'lmashligini ta'kidlash lozim. Bu esa ularning mutlaqo nomustaqilligidan dalolat bermaydi. Ayrim tilshunoslar «muayyan zamon shaklini tavsiflashda «tarz», «mayl» va boshqa zamondan tashqari ma'no ottenkasi qayd qilinganda, zamon shaklining bu ma'no ottenkasi asosidagi sistemaviy aloqasi tiklanmaydi, zero, ular zamon kategoriyasidan tashqarida turadi» degan fikr tarafdori (I.38,108).

Ta'kidlash lozimki, kategoriya umumiy grammatik ma'nosi kategorial va yondosh ma'no yaxlitligi ekan, demak, ularni kategoriya ichidagi va kategoriya umumiy grammatik ma'nosidan tashqaridagi ma'no sifatida qarash maqsadga muvofiq emas.

Ma'lumki, ba'zan bir shaklning o'zi goh zamon, goh mayl ifodalovchisi sifatida qaraladi (I.10,9-21; III.14; I.63). Chunki, Sh.Shahobiddinova ta'kidlaganidek, zamon kategoriyasi ish-harakatning nutq momentiga, mayl esa ish-harakatning borliqqa munosabatini ifodalaydi. Zamon kategoriyasi ish-harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalab, o'tgan (nutq momentidan oldin), hozirgi (nutq momentida) va kelasi zamon (nutq momentidan keyin)ni ifodalasa, mayl «ish-harakatning borliqqa munosabati real yoki irrealligini ifodalaydi» (I.38,108).

Zamon kategoriyasining boshqa kategoriya bilan zich aloqasi shunda ko'rinadiki, ba'zan birdan ortiq shakl o'z substansial mohiyatiga ko'ra qo'shimcha qurshov munosabatida bo'ladi. Masalan, *Men ertaga o'qiyman* va *Men ertaga*

*o'qimoqchiman* gaplarida *-y* va *-moqchi* shakllari zamon ifodalash nuqtai nazaridan farqlanmaydi, biroq mayl ma'nosi asosida ular ziddiyatda. Kategorial tizimda ular bir ma'noni ifodalovchi variant shakl hisoblanadi, biroq, mayl asosida keskin farqlanadi. Demak, *-y* va *-moqchi* shakllari zamon ifodalash jihatidan to'liq mustaqil emas (asosdoshlar), mayl ifodalash jihatidan esa tamoman mustaqillikka ega.

Zamon kategoriyasi ichki bo'linishining farqlanuv i hamda kategoriyaning boshqa kategoriya bilan «qorishuvi»ni chegaralashda «nutq momenti» tushunchasi muhim rol o'ynaydi.

«Nutq momenti» tushunchasi o'ta shartli, nisbiy hamda «grammatik»dir. Chunki dialektik nuqtai nazardan «vaqtga nisbatan aytish mumkinki, har qanday chiziq ikki tomonga qarab cheksiz davom etadi, biz hisobni boshlaydigan «moment» uning har qanday nuqtasi bo'lishi mumkin, chiziq uchun esa biz hisob boshlaydigan nuqta ahamiyatsizdir» (I.38,108). Bundan esa mutlaq va nisbiy zamon tushunchasi kelib chiqadi. Chunki kesimdagi zamon nutq momentiga bevosita yoki bilvosita munosabatda bo'ladi. Agar zamon shakli bevosita ish–harakat zamonini ifodalayotgan bo'lsa, bu mutlaq zamondir. Modomiki, kesimdagi zamon shakli ish–harakatning nutq momentiga munosabatini boshqa so'z orqali nutq momentiga o'tkazar ekan, uni nisbiy zamon sifatida qarash kerak. Quyidagi gapga diqqat qilaylik:

1. *Salim biznikiga kelardi.*
2. *Biz ham borsak edik, Salim biznikiga kelardi.*

Birinchi gapda *kelardi* fe'li ish–harakatning nutq momentiga munosabatini to'g'ridan to'g'ri ifodalamoqda va shu boisdan u mutlaq zamon sifatida baholanishga haqli. Ikkinchi gapda esa *kelardi* fe'li zamon bog'liq qurshovda voqelanib, ish–harakatning nutq momentiga munosabatini oldingi kesim (*borsak edik*) orqali namoyon qilmoqda va u «nomustaqil kesim» deyiladi (II.11). Bu esa zamon va mayl munosabatining o'ziga xos qirrasini namoyon qiladi va gaplardan anglashilgan ish–harakatlar, zamon shakli bir xil bo'lsa–da, «reallik–irreallik»

belgisiga ko'ra ekvipolent ziddiyat hosil qiladi. Aniqrog'i, mustaqil shakllangan kesimdan ish-harakatning realligi va nomustaqil shakllangan kesimdan irrealligi anglashilmoqda.

Ko'rinadiki, zamon va mayl kategoriyalari ma'nosi va qo'llanishi bir-biri bilan shunday zich bog'langanki, buni son kategoriyasidagi miqdor va aniqlik-noaniqlik unsurlari mushtarakligiga qiyoslash mumkin.

## **2.2. Zamon kategoriyasida kategorial, yondosh va hamroh ma'no hamda ularning o'zaro munosabati**

**O'tgan zamon shakllari.** O'tgan zamon shakllari zamon kategoriyasining «ish-harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalash» kategorial ma'nosini «ish-harakatning nutq momentidan oldin yuz berishi» tarzida xususiyashtiradi.

Ma'lumki, grammatik o'tgan zamonni tavsiflashga ikki xil yondashuv mavjud:

1. To'g'ridan-to'g'ri shakllar orqali (I.54);
2. Parchalangan kategorial ma'noni yana «parchalash» asosida (I.64).

Lisoniy hodisa nutq sathiga qarab qancha quyilasa, o'zga hodisa hisobiga «to'yinib», shuncha boyib boradi. Lisoniy sathda substansial mohiyatga yondosh ma'nolar «yopishsa», u nutqqa tushishi bilan hamroh ma'nolar unga «ergashadi». Zamon kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi parchalanishi natijasida vujudga kelgan o'tgan zamon oraliq grammatik ma'no (nisbiy umumiy grammatik ma'no)sining an'anaviy parchalanishida farqlovchi belgilar zamon umumiy grammatik ma'nosiga daxldor ham, daxlsiz hamdir. Odatda, «o'tgan zamon fe'llari quyidagi turlarga bo'linadi:


- 1) aniq o'tgan zamon shakli;
- 2) uzoq o'tgan zamon shakli;
- 3) o'tgan zamon hikoya shakli;
- 4) o'tgan zamon davom shakli;
- 5) o'tgan zamon eshitilganlik shakli» (I.64, 333)

Bu ma'noviy ko'rinishlardan bittasi – uzoq o'tgan zamon shaklida o'tgan zamon UGMsi parchasi (uzoq o'tgan zamon), qolgan ma'noviy ko'rinishlardagi farqlar (aniq, hikoya, davom, eshitilganlik)ning esa zamon UGMsiga hech qanday daxli yo'q.

O'tgan zamon shakli sifatida ko'pchilik tilshunolar tomonidan tan olingan, fan va ta'lim mazmunida ommalashgan *-di, -gan, -ibdi, -gan+di, -edi, -(i)bdi, -(a)rdi, ekan, emish* shaklini qabul qildik.

O'tgan zamon shakli «ish–harakatning nutq momentidan avval sodir bo'lishi» kategorial va «ish–harakatning realligi» yondosh ma'noidan iborat umumiy grammatik ma'noga ega. Bu ikkala belgi barcha shakllarda mavjud bo'lib, har bir shaklda o'ziga xos tarzda juz'iy lashadi.

«Uzoq o'tgan zamon» ni ifodalash



Bunda *-di* uzoq o'tgan zamonn ham (a), yaqin o'tgan zamonn ham (b) ifodalashi mumkin:

a) 1. *Bu voqea bo'lganiga o'n besh yildan oshdi.* (O.Yoqubov) 2. *Munisxon o'shanda nega Toshkentga bordi? U yerda nima qildi? Bunga u javob topolmadi.* (O'. Umarbekov)

b) 1. *Gulsum opa Barnoni ko'ray deb buxgalteriyaga kirdi. Barno yo'q ekan, bir oz kutdi, kelavermagach, o'tirishga sabri chidamay, idoradan chiqdi.* (O.Yoqubov)

Boshqa shakllarda esa «ish–harakatning bajarilish vaqti nisbatan uzoqligi bilinib turadi» (I.54,482). Birinchi ziddiyatdagi belgili a'zolar o'zaro «bevosita kuzatilmaganlik» belgisi asosida privativ ziddiyat hosil qiladi. Bunda –*gan*, –*ardi*, –*edi* shakllari belgisiz, –*ibdi*, –*ardi*, *emish*, *ekan* shaklli ko'rsatkichlar belgili a'zo sifatida namoyon bo'ladi. Belgili shakllardan anglashilgan uzoq o'tgan zamonda bajarilgan ish–harakat so'zlovchi tomonidan bevosita kuzatilgan ham (a), kuzatilmagan ham (b) bo'lishi mumkin:

a) 1. *Men bu kitoblarni o'qiganman.* 2. *Toshlar otib qochar edim yarashardi.* (M.Yusuf)

b) 1. *Eshitishimga qaraganda, +o'chqor tuman markaziga ketganicha qaytib kelmabdi.* (S. Anorboev) 2. *Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir chol bo'lgan ekan.* (Ertakdan) 3. *Chemberlin o'shanda uyida uxlamagan edi.* (S. Ahmad)

Demak, ziddiyatning ikkinchi qatori yondosh ma'no – «ish – harakat realligi»ning ko'rinishi, «reallikning bevosita kuzatilganligi» asosida bo'ladi.

Ikkinchi qator ziddiyatning belgisiz a'zolari tizimi ikkinchi xil yondosh ma'no – harakat tarzi kategoriyasining zamon kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosidagi aksi – davomiylik - davomsizlik asosidagi ziddiyatli munosabatda yashaydi. Bu ziddiyat ham privativ tabiatli bo'lib, bunda –*ardi* shakli belgili, *edi* va –*gan* shakllari belgisiz a'zo sifatida namoyon bo'ladi. Chunki –*ardi* shakli har doim davomlilikni (a), –*gan* va *edi* shakllari, asosan, davomsizlikni (b), ba'zan davomlilikni ifodalaydi.

a) 1. *Klubimiz binosidan ko'p kolxozlar andaza olishni orzu qilardi.* (Oybek)

2. *Tayog'ini sudrab, ko'ngilsiz*

*Poda haydab qirga ketardi.*

*Maysa gilamlarga yetardi.* (Uyg'un)

b) 1. *Siz yaxshi pazandasiz, ta'rifingizni eshitganman.* (Oybek)

2. *Mehnat taqdirlagan, boboning umrin.* (A.Muxtor)

3. *Bu haqda gazetda o'qigan edim.* (Oybek)

v) 1. *Mirhaydar otaning foydasini ko'p ko'rganmiz.* (Oybek)

2. *Yo'lning ikki tomoniga cho'zilgan qir yonbag'irlarini endigina yorib chiqayotgan o'tlar qoplagan.* (P. Tursun)

3. *U zavodda ishlagan edi.* (M. Osim)

Ziddiyatga diqqat qilinsa, *-gan* va *-di* shakllarining davomiyligni «ba'zan» ifodalashi ularning UGMsi tarkibidagi shakllarga xos doimiy xususiyat emas. Bu xususiyatga ular «ba'zan» ega. Bu esa «davomiylig» ma'nosi ularning UGMsiga xos emasligini, balki shakllarga xos hamroh ma'no ekanligini ko'rsatadi. Chunki bu kontekstda, bog'liq qurshovdagina bo'ladi. *Ko'rganmiz* fe'lidagi *-gan* shakli ifodalayotgan «davomiylig» ko'p so'zi ta'sirida yuzaga chiqmoqda. *Ishlagan edi* so'zshaklidagi «davomiylig» esa *ishlamoq* fe'li tabiatiga bog'liq. Demak, tarz kategoriyasining «davomiylig-davomsizlik» ma'nosi ayrim o'tgan zamon shakli (mas. *-ardi*)da yondosh ma'no sifatida yuzaga chiqsa, boshqasida hamroh ma'no bo'lib voqelanadi. Hatto *-ardi* shaklida qurshov natijasida «o'tgan zamon» kategorial ma'nosi ham, «davomiylig» yondosh ma'nosi ham kuchsizlanib, hamroh ularni siqib chiqarishi bilan birga bo'sh o'rinni egallaydi va vaqtincha, nutqiy «hukmronlik»ka ega bo'ladi:

1. *Salim kelsa edi, men borardim.*

2. *Ukam o'qisa edi, tushunardi.*

Demak, *-sa* shart mayli shakli *-ardi* qo'shimchasida kategorial va yondosh ma'noni susaytiruvchi va hamroh ma'noni kuchaytiruvchi vosita hisoblanadi.

*-gan* shaklidagi «hozir ham uzluksiz davom etib turgan harakat (a), gumon, noaniqlik ma'nolari» (b) (I.64,335) ham hamroh ma'nolardir:

a) *Fe'li keng, saxovatli, mehmondo'st xalqimizning dong'i olamga ketgan.*

(M. Ismoiliy)

b) *Balki bu yerlarda ko'p dilbar*

*Manzaralar jilva qilgandir.*

*Ovlamoqchi bo'lib ko'nglingni,*

*Balki qushlar qanot qoqqandir... (Uyg'un)*



v) *Sizning fikringizni, ehtimol, xodimlaringiz so'zsiz tushunishga o'rganib qolgandir, lekin men tushunmadim.* (V. Ajoev)

Chunki bu ma'nolarni ham kontekstgina yuzaga chiqaradi. Masalan, «bu vaqtda gumon bildiruvchi *ehtimol, balki* kabi so'zlar keladi» (I.64,335).

-*ardi* shaklining turli qo'llanishlarida «davomiylik» yondosh ma'nosi yana juz'iy lashib, «uzluksiz davom etib turish», «galma-gal takrorlanib turish» ko'rinishlarini oladi:

«a) o'tmishda ma'lum bir vaqt uzluksiz davom etib turgan harakatni bildiradi:

1. *O'ktam ko'pirgan, o'kirgan suvda bo'ynigacha botib, hansirab ishlar edi. Hovuz bo'yida, salqinda... katta yog'och karavotda bir necha kishi dam olib o'tirishar edi.* (Oybek)

2. *Arava qatirlab borar, gap mavzudan mavzuga ko'char edi.*(A. +ahhor)

b) o'tmishda galma-gal takrorlanib turgan harakatni bildiradi:

*Daryolardan kuylab o'tardim,*

*Ertaklarga quloq tutardim.*

*Hammasini tinglardim, ammo*

*O'xshashini topmasdim aslo.*

(H.Olimjon)» (I.64,338)

Bunda ma'no tavsifida «o'tmishda» unsuri ortiqcha, albatta. U asarda yozilgan voqealarning o'tmishga oidligidan kelib chiqib, tavsifga kiritilgan.

Bevosita va bilvositalik belgilari asosida ajralib chiqqan va «bevosita kuzatilmaganlik» belgisiga ega bo'lgan *-ibdi* shakli «subyektiv munosabat» ma'nosini ifodalaydi. Shaklning subyektiv munosabat ifodalashi bog'liq qurshovni talab qilmaydi va shu boisdan uni yondosh ma'no sifatida baholash mumkin.

«Noxolis subyektiv munosabat» belgisi asosidagi noto'liq ziddiyatda *emish* belgili, *ekan* va *-ibdi* shakllari belgisiz, majhul a'zo sifatida yuzaga chiqadi. «To'liqsiz fe'l sifatida *ekan* qatnashsa, so'zlovchining diqqati mavjud bo'lgan


harakatning natijasiga qaratiladi: *Uning oq oralagan sochlari tamoman oqarganini O'ktam to'y suronda payqamagan ekan.*(Oybek)

To'liqsiz fe'l sifatida *emish* kelsa, eshitilganlik, harakatning o'tmishda bo'lgan–bo'lmaganligi noaniq, gumon ekanligi ifodalanadi: *Ukang aeroplardan sakraydigan bo'lgan emish.* (Oybek)» (I.64,337;)

Demak, ma'lum bo'ladiki, o'tgan zamon shakllari o'zaro kategorial va yondosh ma'noni xususiylashtirishi, hamroh ma'noni ifodalashi jihatidan o'zaro farqli xususiyatga ega. Shakllar tizimida *-di* ko'rsatkichi umumiy grammatik ma'nodan ko'proq «hissa» olishi, barcha tarz–mayl ma'nolariga betarafligi bilan ajralib turadi (II.10,5; I.22,142). Shu boisdan tadqiqotlarda uning yigirmaga yaqin ma'nosi qayd qilinadi (III.18,16; I.38,112).

O'tgan zamon shaklining kategorial, yondosh va hamroh ma'nolar asosidagi ziddiyatli munosabatini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

FOR AUTHOR USE ONLY



**Hozirgi zamon shakllari.** Hozirgi zamon shakli zamon kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini «ish–harakatning nutq momentida bajarilayotganligi» tarzida xususiylashtiradi. Bu kategorial ma'no shakllarning barchasiga xos. Shu bilan birgalikda, ma'nolar, albatta, zamon uchun kategorial ma'nolar – «aniqlik» (mayl) va «davomiylik» (harakat tarzi) yondosh ma'nolari bilan yuzaga chiqadi. Nutqiy qo'llanishda «davomiylik» yondosh ma'nosi shu darajada kuchayadiki, u qariyb kategorial ma'no bilan tenglashadi. «Davomiylik» ma'nosi o'z–o'zidan «ish–harakatning boshlanganligi» va shu bilan birga «tugallanganligi» ma'nolarini ham yondosh ma'no sifatida olib chiqadi. Ularning kategorial ma'noga zichlashuv darajasini quyidagicha berish mumkin:

**Davomiylik – boshlanganlik – tugallanmaganlik.**

Obyektiv reallikda esa bu uchlik:

**Boshlanganlik – davomiylik – tugallanmaganlik**

tarzida o'rinishadi.

Hozirgi zamon shakllari «davomiylik» yondosh ma'nosi asosida ayrim o'tgan zamon shakllari bilan privativ tabiatli ziddiyatga kirishadi. Chunki, masalan, hozirgi zamon shakllarida «davomiylik» «tugallanmaganlik» bilan yuzaga chiqsa, o'tgan zamon shakllarining ayrimlarida «davomiylik» tugallanmaganlik (a) bilan ham, tugallanmaganlik (b) bilan ham namoyon bo'ladi:

a) *1. Men Salimdan xabar oldim, u yo'lga tayyorlanayotgan ekan. 2. Hozir ko'rdim, kelayotgan edi.*

b) *1. Vafotidan oldin zavodda ishlayotgan edi. 2. U singlisini bir yil oldin ko'rgan edi.*

Hozirgi zamon fe'l shakli ma'no va qo'llanishida o'ziga xoslikka ega. U kategorial va yondosh ma'no silsilasiga ko'ra farqlanmaydi. Ayrim uslubiy farq, qo'llanishdagi o'ziga xoslik hamroh ma'no sifatida yuzaga chiqadi. «Uslubiy xoslanmaganlik» ziddiyat belgisi asosida bu shakllar o'zaro qarshilanib, bu hamroh ma'noga –*yap* shakli ijobiy munosabatda bo'lsa, boshqa shakllar (*-yotir,-yotib,-moqda*, harakat tarzi shakllari asosida) uslubiy xoslanganligi bilan xarakterlanadi.

«So‘zlashuv uslubiga xos» hamroh ma’nosi harakat tarzi vositalari bilan hosil qilingan hozirgi zamon shakllariga xos bo‘lib (II.21,50), *-yotib* dialektal, *-yotir* badiiy, *-moqda* kitobiy (badiiy, ilmiy, rasmiy, publitsistik) uslublarga xoslanganligi bilan ahamiyatli. Bu ma’noning barchasi shakl umumiy grammatik ma’nosiga xos bo‘lmay, kategorial va yondosh ma’no ustida qavatlanadigan hamroh ma’nodir.

**Hozirgi-kelasi zamon.** Hozirgi-kelasi zamon shakllari «hozirgi» yoki «kelasi» umumiy grammatik ma’no parchalari uchun majhul munosabat ifodalaydi. Chunki bu shakllar:

- a) kelasi zamoni ifodalaydi;
- b) hozirgi zamoni ifodalaydi;
- v) o‘tgan, hozirgi, kelasi zamonga betaraf bo‘ladi.

Tilshunoslikda hozirgi–kelasi zamon ifodalovchi «ikkita yagona va ikkita qo‘shma shakl bor. Yasama shakllar  $-(a)y$ ,  $-(a)r$  li ravishdoshdan qo‘shma shakllar mazkur ravishdoshdan *ekan*, *emish* yordamida hosil bo‘ladi» (I.21,41).

$-a/y + shaxs-son$  qo‘shimchalari birikuvidan tashkil topgan shakl kategoriyasi mohiyatidan ko‘proq ulush oladi:

a) muayyanlashmagan uchala zamoni umumlashtirib ifodalaydi; b) kelasi zamoni ifodalaydi. Bu ma’nolar shaklda yuzaga chiqqan kategorial ma’no. Harakatning doimiyliги umumiy grammatik ma’nodagi yondosh ma’no quyidagi gaplardagi zamon shaklida to‘liq yuzaga chiqadi:

1. *O‘zbek qizlari sevgisini aytmaydi, bir umr pinhon tutadi.*
2. *Qush uyasida ko‘rganini qiladi.* (Maqol)

Aktuallashtiruvchi vositalar ta'siri natijasida «doimiylik» yondosh ma’nosi «davomiylik» kasb etib, kategorial ma’noda muayyanlashish vujudga keladi va «harakatning bajarilishi bevosita nutq momentiga, hozirga oid bo‘lishi mumkin» (I.54,501);

1. *Yigit nihoyatda isib ketgan, peshonasi, yuzlaridan tinmay ter quyadi.* (S.Ahmad)

2. *O'sha kuni bo'lib o'tgan shov–shuv hali ham qulog'im tagida shang'illaydi, hali ham miyamni gangityapti.* (B.Kerboboev)

1–misoldagi oldingi gap, 2–misoldagi *hali ham* aktualashtiruvchi vositasi ta'sirida «hozirgi zamon» ma'nosi uqiladi. Agar gaplar bu vositalardan xalos qilinsa yo doimiy zamon ma'nosi ifodalanib, «davomiylik» yondosh ma'nosi o'rnida «doimiylik» ifodalanadi, yo kelasi zamon kategorial ma'nosi «boshlanmaganlik» yondosh ma'nosi uqiladi. Diqqat qiling:

1. *Nihoyatda isib ketsa, peshonasi, yuzlaridan ter oqardi.* 2. *Shov – shuv kuchaysa, quloqlari shang'illaydi.*

Kelasi zamon ma'nosida qo'llashga esa mazkur fe'llarning lug'aviy ma'nosi monelik qiladi. Demak, kelasi zamon kategorial ma'nosi voqelanishi uchun birikayotgan fe'lning – qurshovning ahamiyati muhim. «Hozirgi zamon» kategorial ma'nosi «davomiylik» yondosh ma'nosi bilan dialektik bog'liq bo'lganligi tufayli bunday holat yuz beradi. Aniq hozirgi zamon ma'nosi mazkur shakl mansub kategoriyaga xos ma'noda bo'lsa–da, bu ma'noni ifodalash *a/y+shaxs–son* qo'shilgan shakli uchun xoslangan ma'no emas. Xos bo'lmagan kategorial ma'noning kuchayishi xos kategorial ma'noning susayishiga olib kelgan.

Demak, ma'lum bo'ladiki, «*a/y+shaxs–son*» tuzilishi shakl uchun «umumzamon» va «kelasi zamon» kategorial ma'nolar bo'lib, unga «ish–harakatning aniqligi», «irreallik», «tugallanmaganlik» yondosh ma'nolari (modal ma'nolar) yo'ldosh bo'ladi. «Hozirgi zamon» esa shakl uchun xos bo'lmagan kategorial ma'no bo'lib, «davomiylik» (tarz-tus) hamroh ma'no sifatida yuzaga chiqadi. Hamroh ma'no boshqa shakllarda bo'lgani kabi bunda ham bog'liq qurshov asosida namoyon bo'ladi.

(*a*)*r/mas+shaxs–son* ko'rsatkichida zamon umumiy grammatik ma'nosining «hozirgi–kelasi zamon» kategorial ma'nosi «gumon» yondosh ma'nosi (modallik) bilan mushtarak holda namoyon bo'ladi.

1. *Qayerdan bilasan, balki hozir ham yuqoridan qararman.*  
(A.Qahhor) (Hozirgi kelasi zamon – gumon).

2. *Shu atrofda yurgandir, kelib qolar.* (S.Anorboev) (kelasi zamon – gumon)

«Hozirgi–kelasi zamon» yoki «kelasi zamon» kategorial ma'nolarini farqlovchi omil bilan – gap tarkibidagi aktuallashtiruvchi vositalar, shaklni biriktiruvchi fe'l bilan belgilanadi. Masalan, *qaramoq* fe'lini umumzamon ma'nosi shakli bilan qo'llasa bo'ladi, biroq *kelmoq* fe'li *qolmoq* ko'makchi fe'li bilan kelib, ko'makchi fe'l yetakchi fe'lni shakl orqali umumzamon anglatishga yo'l qo'ymagan.

Qurshov natijasida «gumon» yondosh ma'nosi kuchsizlanib, «qat'iylik» hamroh ma'nosi kuchli tarzda ifodalanishi mumkin. «Hozirgi–kelasi zamon gumon fe'li orqali shart ergash gapli qo'shma gapda bosh gapni kesim vazifasida, ko'pincha, fikrning qat'iy ifodasi uchun ham qo'llanadi: *Agar o'lgan kishi qayta tirilsa, bundan ortiq ajoyibot bo'lmas.*» (A.Ubaydullaev)» (I.54,502). Demak, bunda shart ergash gap hamroh ma'noni vujudga keltiruvchi va yondosh ma'noni kuchsizlantiruvchi qurshov.

Ba'zan uslubiy omillar ham gumon yondosh ma'nosi o'rnini aniqlik hamroh ma'nosiga olib berishi mumkin. Bu she'riyatda, eski uslubga xos nutqlarda uchraydi:

*Yallalar aytib kezarman,*

*Shu go'zal bo'stonda men.*

(K.Yashin)

Demak, bu shakl ma'nosi «Kategorial ma'no + Yondosh ma'no» emas, balki «Kategorial ma'no + Hamroh ma'no» ko'rinishiga ega.

Zamon kategoriyasining kategorial, yondosh va hamroh ma'nolarini ilovadagi 9-jadvaldagidek aks ettirish mumkin:

9-jadval

		<b>Ma'no turlari</b>	<b>O'tgan zamon -di,-gan, (-i)b edi, (-gan+edi, -(i)b+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi, -(a)r+edi, -mas+edi,guvchi+edi)</b>	<b>Hozirgi zamon -yap, -yotir, -yotib, -moqda</b>	<b>Kelasi zamon -a,-y -(a)r, (-mas)</b>	
<b>Ma'no tiplari</b>	<b>Kategorial ma'no</b>	O'tgan zamon	+			
		Hozirgi zamon		+		
		Kelasi zamon			+	
	<b>Yondosh ma'no</b>	Harakat realligi	+			
		Harakat irrealligi				+
		Istak				+
		Maqsad				+
		Shart				+
		Buyruq				+
		Gumon				+
		Davomiyik			+	
	<b>Hamroh ma'no</b>	Gumon	+			
		Harakat realligi			+	+
		Harakat irrealligi	+		+	
		Istak	+		+	
		Maqsad	+		+	
		Shart	+			



### 2.3. Zamon shakllarining kategorial, yondosh va hamroh ma'nolar asosidagi oppozitiv munosabatlari

Sof o'tgan zamon ma'nosini ifodalovchi *-di,-gan*, hozirgi–kelasi zamon ma'nosini ifodalovchi *-a(y),-a(r)*, hozirgi zamonnifodalovchi *-yap* va boshqa shakllarning (yondosh, hamroh) ma'nolarga munosabati turlicha. Bu shakllar, avvalo, kategorial ma'no asosida zidlanadi. Ularda kategorial ma'no mutlaq ma'no sifatida namoyon bo'ladi. Boshqa shakllar esa nisbiy bog'liq zamon ma'nolarini ifodalay olish qobiliyati bilan farqlanadi. Umuman olganda, shaklning oppozitiv munosabati dastavval kategorial tus olib, ziddiyat quyiga yondosh va hamroh ma'no asosida namoyon bo'ladi.

Zamon shakllari dastavval nisbiy zamon ifodalay olishiga ko'ra zidlanadi. Bu belgiga *-(a)rdi, ekan, emish, -(a)y+sh/s, -(a)r+sh/s* shakllari ijobiy, *-gan, -di, -moqda, -yap, -yotib, -(i)b+yot/tur/o'tir/yur* shakllari mavjud munosabatda bo'ladi. Chunki bu shakllar asosan mutlaq, qisman nisbiy zamon ifodalashga ham qodir.

Birinchi qator ziddiyatning belgilangan a'zolari modal yondosh ma'no – ish-harakatning reallik-irreallik belgilarini ifodalashiga ko'ra zidlanadi. Bunda *-(a)rdi* ziddiyatning belgisi, *-(a)y+sh/s, -ar+sh/s, -ibdi, ekan, emish* shakllari belgisiz a'zo sifatida ajralib, bu yondosh ma'no ushbu shakllarda gohida hamroh ma'no sifatida yuzaga chiqadi. Ziddiyatning belgisiz a'zolari «boshqa yondosh ma'noga egalik – ega emaslik» belgilari asosida zidlanadi. *-a/y+sh/s* shakli «aniqlikni» yondosh ma'no sifatida yuzaga chiqaradi.

*-a/r+sh/s, -(i)bdi, ekan, emish* shakllarida esa bu ma'no ba'zan yuzaga chiqib, u hamroh ma'no sifatida baholanishi maqsadga muvofiq. «Bevosita kuzatilganlik» belgisi *-ardi* shaklida yondosh, *-ibdi, ekan, emish* shaklida hamroh ma'no sifatida mavjud.

Birinchi bosqich ziddiyatining majhul a'zolari tarz–tus kategoriyasi bo'lgan «davomiylik» yondosh ma'nosi asosida farqlanadi: *-moqda, -yap, -yotib, -ib+ko'makchi fe'l (yot, tur, o'tir, yur)* belgisi, *-gan* belgisiz a'zo sifatida yuzaga

chiqadi. Chunki davomli harakatni ifodalovchi fe'llarda *-gan* o'rni bilan «davomiylik» bo'yog'iga ham ega bo'ladi. Ikkinchi bosqichda belgi a'zolar modal ma'noga munosabati asosida zidlanadi: *-moqda, -yotib, -(i)b + tur / o'tir / yot / yur* zamondan tashqari hamisha modal ma'noga ega bo'ladi. *-yap* da esa bu belgilanmagan. Birinchi guruh shakllar uslubiy asoslarda ajraladi. *-moqda* uslubiy xoslangan va *-yotib, -(i)b + yot / tur / o'tir / yur* uslubiy xoslanmagan.

Ko'rinadiki, kategorial ma'no har bir shaklda mavjud bo'lib, yondosh ma'noga ziddiyatning belgisi a'zolarigina ega. Belgisiz a'zolarda esa u hamroh ma'no sifatida yuzaga chiqadi.

Zamon kategoriyasi o'zbek tilida eng ko'p shaklli kategoriyalardan hisoblanadi. Manbalarda uning asosiy uch turi ko'plab turchalarga bo'lib beriladi. Masalan, o'tgan zamon - o'tgan zamon davom fe'li, o'tgan zamon hikoya fe'li, uzoq o'tgan zamon fe'li, yaqin o'tgan zamon fe'li kabi ko'rinishlarga bo'linadi va h. Bunday turlarni ajratish o'z-o'zidan zamon kategoriyasida lisoniy — kategorial va yondosh, nutqiy hamroh ma'noni farqlamaslik natijasidir. To'g'ri, kategorial va yondosh ma'no zamon kategoriyasi shakllarini ajratish uchun asos bo'ladi. Biroq unutmaslik kerakki, kategorial va yondosh ma'no ko'p hollarda bevosita kuzatishda bo'rtib turadigan hamroh ma'no ta'sirida bir nazarda ko'zga tashlanmaydi.

Zamon kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi uchun «zamon» ma'nosi kategorial ma'no bo'lib, u har doim turli-tuman mayl ma'nolarisiz mavjud bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, zamon kategoriyasida zamon va mayl ma'nolari dialektik bog'liqlikda va biri ikkinchisiz yuzaga chiqmaydi.

Zamon kategoriyasi shakllari nutqda voqelanar ekan, bu ma'nolar o'tkinchi, beqaror nutqiy ma'nolar hisobiga yana boyiydi. Bu ma'nolar zamon umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishini murakkablashtiruvchi vositalar bo'lib, unga substansial bog'liqlik kasb etmaydi. Hamroh ma'nolar sifatida baholanuvchi bu ma'nolar sirasiga «gumon», «harakat realligi», «harakat

irrealligi», «istak», «maqsad», «shart», «davomiylik» kabi qator ma'nolarni kiritish mumkin.

FOR AUTHOR USE ONLY

### 3-BOB. MAYL KATEGORIYASINING MA'NOVIY TARKIBI

#### 3.1. Mayl kategoriyasida kategorial, yondosh va hamroh ma'no

Mayl kategoriyasi «harakatning borliqqa munosabati» (umumiy grammatik ma'nosi)ni ifodalaydi. U zamon, shaxs–son va tasdiq–inkor kategoriyalari bilan kesimlik kategoriyasini tashkil etadi. Hozirgi o'zbek tilida to'rtta: aniqlik, shart, buyruq–istak, maqsad mayllari farqlanadi. Ayrim ishlarda buyruq va istak alohida–alohida (I.22,135), ba'zilarida esa shart maylining o'tgan zamondagi ko'rinishi shartli mayl sifatida qaraladi (I.54,472).

Buyruq va istak shu darajada qorishib ketganki, «ularni bir–biridan ajratib bo'lmaydi, istak bo'lgandagina buyruq bo'ladi, biror harakat uchun istak bo'lmagan o'rinda uni bajarishga buyurish, da'vat etish, undash ham bo'lmaydi. Buyruq–istak formalarining asosiy xususiyati so'zlovchining istagi bilan bog'liq ravishdagi harakatga undash, shu harakatga da'vat etish, kuzatishni ifodalashdir» (I.54,464).

Aniqlik mayli boshqa mayllarga qarama–qarshi o'laroq real ish–harakatni ifodalaydi (I.42,268). Shart, buyruq–istak mayllari esa irreal ish–harakatni ifodalaydi.

Mayl va zamon kategoriyalari bir–biri bilan chambarchas, dialektik aloqadorlikda. Shu boisdan zamon yondosh ma'no sifatida mayl kategorial ma'nosi bilan baqamti yashaydi.

**Aniqlik mayli.** Aniqlik maylida «ish–harakatning bajarilishi tushunchasi bo'ladi. Bu mayldagi fe'l, albatta, biror zamon formasida bo'ladi: *keldi, kelyapti, keladi*» (I.54,475). Aniqlik maylining tarmoqlangan va ko'p sonli shakllar tizimiga egaligi uning o'ziga xosligini ko'rsatadi. Aniqlik mayli mayl kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosini «ish–harakatning realligi–irrealligi» ko'rinishida xususiylashtiradi va maylning irreal (amalga oshishi mahol bo'lgan)likni ifodalovchi boshqa shakliga qarama–qarshi turadi. Bu kategorial ma'no o'tgan,

hozirgi, kelasi zamon yondosh ma'nosiga ega bo'lib, nisbiy zamon mayl uchun hamroh ma'no maqomiga ega bo'ladi.

«Ish–harakatning realligi» kategorial ma'nosi «o'tgan va hozirgi zamon» yondosh ma'nosi asosida yuzaga chiqadi. O'z o'rnida bu kategorial ma'no boshqa yondosh ma'no «ish–harakatning tugallanmaganligi» ma'nosi asosida tarmoqlanib, tarmoqning birinchi qismi o'tgan va ikkinchi qismi hozirgi zamon yondosh ma'nosi bilan birga keladi.

Xabar maylining ikkinchi turi – «ish–harakatning irrealligi» kategorial ma'nosi «kelasi zamon» yondosh ma'nosi bilan voqelanadi. Bu yondosh ma'noga «davomiylik» hamroh ma'nosi ergashishi mumkin va bu, albatta, kontekstda ma'lum bo'ladi: *Men ertaga o'qiyotgan bo'laman*. Shunday kontekstda kelasi zamon asosida tarz kategoriyasi hodisasi bo'lgan yana bir hamroh ma'no – «tugallanmaganlik» (imperfekt) ham namoyon bo'lishi mumkin: *Men ertaga o'qigan bo'laman*.

«Ish–harakatning realligi» kategorial ma'nosi hozirgi – kelasi zamon shaklida «doimiylik» (tarz) yondosh ma'nosi bilan ham yuzaga chiqadi: *Yer Quyosh atrofida aylanadi*. Bunda, albatta, imperfektlik ma'nosi ham yondosh ma'no darajasiga ko'tariladi.

Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, o'tgan va hozirgi zamon shakllari qarama–qarshiligi sof zamon ma'nosi doirasidan chiqib, farqlanishlar mayl yondosh ma'nolari ish–harakatning realligi va irrealligi asosida bo'lganligi kabi, mayl ma'nosi unga yondosh zamon ma'nolari asosida yuzaga chiqariladi. Bu esa o'tgan va hozirgi zamon shakllari tizimi zamon ifodalasa-da, ularning farqlanishlari asosida reallik–irreallik zidlanishlari yotgan nutq momentiga munosabatdir.

Umuman olganda, aniqlik mayli tarz–tus, modallik ma'nolariga betaraf munosabatda bo'ladi, ham real, ham irreal ish–harakatni ifodalashi mumkin. Chunki kontekst, sintaktik qurshov zamon ma'nolarining o'zgarishi, har xil tarz–tus va zamon ma'nolarining ifodalanishiga imkoniyat beradi.

**Shart mayli.** Shart mayli shaklidagi fe'lda mayl kategoriyasi mohiyati «harakat bajarilishining boshqa bir harakatga bog'liqligi» tarzida xususiylashadi va bu «ish–harakatning voqelikka munosabati → ish harakatning irrealligi → shart» ko'rinishida bo'ladi. Xususiylashgan substansial ma'noga «nisbiy o'tgan zamon» yondosh ma'nosi hamkorlik qiladi. Chunki, shart maylidagi ish–harakat unga bog'liq keyingi fe'l ish–harakatidan oldin bajarilishi lozim. Shuning uchun «shart» kategorial ma'nosi, albatta, «nisbiy o'tgan zamon» yondosh ma'nosi bilan bir vaqtda yuzaga chiqadi.

Kontekst va sintaktik qurshov ta'sirida shart mayli quyidagi o'zi mansub kategoriyaga xos, ammo o'ziga xos bo'lmagan hamroh ma'nolarni ifodalaydi.

a) istak: *Sekin po'stini archsang, og'zingga solib, tiling bilan tanglayingga bossang. Suvini qult–qult yutsang.* (A.Qahhor)

b) iltimos, maslahat: *Agar bemalol bo'lsa, o'sha kishini chaqirib yuborsangiz.* (B.Rahimov)

Iltimos ma'nosi voqelanganda, «istak ma'nosi yo'qolmaydi» (I.54,470).

Shuningdek, boshqa turdagi hamroh ma'nolar ham yuzaga chiqadi:

a) payt: *Ertalab derazadan qarasam, hamma yoq oppoq qor.* (A.Qahhor)

b) sabab va sababga yaqin ma'no: *Yo'q, bir–ikkita xat yozmagan bo'lsam, uyat bo'ladi.* (M.Ismoilijiy)

c) to'siqsizlik: *Sho'xlik qilsalar ham, juda to'ydirib yuboryaptilar.* (Oybek)

d) ma'no kuchaytirish: *Har kecha idoramizdagi tomoshani ko'rsang.* (Oybek)

e) inkor: *Qani endi bu maslahatga ko'nsa.* (So'zlashuvdan)

Ma'nolarda shart ma'nosi susaysa-da, irreallik kategorial ma'nosi hamda ba'zan nisbiy zamon, ba'zan u mutlaqlik kasb etgan holda namoyon bo'ladi.

**Buyruq–istak mayli.** Buyruq–istak maylida mayl kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi «ish–harakatning voqelikka munosabati → irreallik → buyruq → istak» tarzida xususiylashadi va unga «kelasi zamon» yondosh ma'nosi

hamkorlik qiladi. Maylning boshqa turlaridan farqli ravishda buyruq–istak maylida «shaxs–son» ma’nosi ham yondosh ma’no sifatida mavjud bo’ladi. Chunki bunda harakat bilan subyekt orasidagi munosabat ham bo’rtib turadi va ko’proq birinchi shaxs istak, ikkinchi shaxsda buyruq, uchinchi shaxsda undash ifodalanadi. Demak, «ushbu maylning modal ma’nolari shaxs bilan uzviy bog’langan. Tub shakl II shaxs bilan bog’liqligi» (I.21,48) buni yaqqol ifodalaydi.

Buyruq–istak maylining mustaqil va nomustaqil voqelanishini farqlash lozim. Mustaqil qo’llanishda kategorial ma’no hech qanday ta’sirsiz yuzaga chiqsa (a), nomustaqil qo’llanishda kategorial ma’no kuchsizlanib, buning evaziga hamroh ma’no shart (b), to’siqsizlik (v), intensivlik (g), payt (d) ma’nolar ifodalanadi:

a) 1. *Tuyaning dumiga bog’lab sazoyi qilish.* (A. Muxtor)

2. *Menga aql o’rgatma.* (A. Qahhor) 3. *Quloq sol, aytay.* (S. Ahmad)

b) 1. *Bolalar to’plansin, o’ylab ko’ramiz.* (S. Anorboev) 2. *Odamlar bilan gaplashsin, bilib oladi.* (G’.G’ulom)

v) 1. *Tursunoy qancha yonmasin, Ashurali hamon bosiq so’zlardi.* (G’.G’ulom) 2. *Lekin u o’ziga qancha dalil keltirmasin, baribir, hech bittasi salmoqli, asosli ko’rinmadi.* (M. Ismoilij)

g) *Bizlar bir o’tirmaylik, o’tirgandan keyin yana turadiganlardan emasmiz.* (M. Rasvo)

d) *Sanam kelsin, maslahat qilib ko’amiz.* (S. Nurov)

**Maqsad mayli.** Maqsad mayli –*moqchi* shakli vositasida ifodalanadi. Maqsad maylida kategoriya substansial mohiyati «ish–harakatning voqelikka munosabati→ irreallik → maqsad» ko’rinishda xususiylashadi. Tadqiqotlarda aytilishicha «fe’lning bu formasi faqat maqsad, mo’ljal ma’nosini bildiradi, uning zamon ma’nosiga daxli yo’q. –*moqchi* affiksi bilan yasovchi forma zamon ma’nosiga ega bo’lgan birorta vosita bilan qo’llanmaganda, u bildirgan maqsad, mo’ljal hozirga (hozirgi vaqtga) oid bo’ladi.

Qiyoslang:

1. *U hozir hammaning kallasini g'ovlatgan shum xabarni yo hech o'ylamayapti, yoki bu gapning menga sira daxli yo'q, deb ko'rsatmoqchi.* (A. Muxtor)

2. *Uyalish u yoqda tursin, o'zi o'yinini ko'rsatmoqchi bo'layapti.* (M. Ismoilij)» (I.54,474).

Ko'rinadiki, birinchi gapda *hozir*, ikkinchi gapda *bo'layapti* qurshov vositalari maqsadning hozirgi zamonga oidligini ko'rsatyapti. Lekin undan xalos qilingan jumlada hozirgi–kelasi zamon ma'nosi yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

+iyoslang:

1. *Domlaning yer olgani rost, buni Saidiyga bildirmoqchi.* (Hozirgi – kelasi zamon)

2. *Daryoga to'g'on solmoqchimiz.* (Hozirgi – kelasi zamon)

Bu maqsad maylining zamonga «axlsizligi» haqidagi fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Mayl kategoriyasiga zamon ma'nosining yondosh ekanligi maqsad maylida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu boisdan ayrim adabiyotlarda *-moqchi* shakli kelasi zamon ko'rsatkichi sifatida ham qaraladi (I.53,132), **maqsad** atamasining o'zi ham buni tasdiqlaydi.

Demak, maqsad mayli «kelajakka qaratilgan» ish harakatni ifodalaydi. «*-moqchi* affiksi bilan yasalgan forma *bo'l* fe'lining o'tgan zamon, hozirgi zamon formalari bilan qo'llanganda ham harakatning o'tgan zamon yoki hozirgi zamonga oidligi emas, balki maqsadning (niyatning) hozirgi yoki o'tgan zamonga oidligi ifodalanadi» (I.54,475) fikri dalili uchun keltirilgan. «*Bormoqchi bo'lyapman emas, boryapman deyaver*» misolini esa har xil tushunish mumkin. Bu so'zlovchining kommunikativ niyati bilan belgilanadi.

Umuman olganda, matn talabi, qurshov va hamroh ma'no, shuningdek, qurshovchi vositaning ham nutqiy ma'no asosida turlicha xususiyat kasb etishi boshqa kategoriyada bo'lgani kabi mayl turlarida ham hamroh ma'noning har xil ko'rinishda yuzaga chiqishini belgilaydi. Bu esa, o'z-o'zidan, hamroh ma'noning



nechoq'lik beqaror va o'tkinchi, bunga muvofiq ravishda miqdoran cheksizligini ko'rsatadi.

10-jadval

		Ma'no turlari	Xabar	Buyruq/istak	Shart	Maqsad	
Ma'no tiplari	Kategorial ma'no	Ish harakatning bajarilishi	+				
		Maqsad				+	
		Shart				+	
		Buyruq			+		
		Istak			+		
	Yondosh ma'no	Payt	+	+	+	+	+
		Shaxs			+		
		Istak				+	
		Irreallik			+	+	+
		Reallik	+				
	Hamroh ma'no	Istak	+			+	
		Shart			+		
		Ish harakatning bajarilishi				+	
		Subyektiv munosabat			+	+	+
		Uslubiy ma'no			+	+	

### 3.2. Mayl kategoriyasi turlarining kategorial, yondosh va hamroh ma'nolar asosidagi oppozitiv munosabatlari

Aniqlikdan boshqa mayllar irreal (yuz bermagan) ish–harakatni ifodalaydi. Bu belgi asosida aniqlik mayli (**I guruh**) boshqa mayl turlari (**II guruh**) bilan privativ ziddiyatda bo'lib, bunda aniqlik mayli belgisiz mavqyeni egallaydi. Chunki u ham real, ham irreal ish–harakatni bildiradi, nutq momentidan oldingi, keyingi hamda nutq momentida ish–harakatni birday ifodalash faqat ungagina xos:

**I guruh.** 1. O'n sakkizga kirgan odamning ko'ziga olam **jilva qiladi**. Kamalakning yetti rangidan yetmish rang **yasaydi**. (S.Ahmad.) 2. Go'dak yana o'tmayin fursat,

*Akasiga tikadi ko'zin:*

*-Jon, akajon, yana bir ko'rsat,*

*Ko'zim bilan ko'rayin o'zim.* (A.Oripov.)

**II guruh.** 1. Yo rabbiy, ilmimni **ziyoda qilg'il**. («Hadis»dan). 2. Bir qo'shiq **kuylansa**, ko'ngildan, Ehtimol, bir nafas **tinglarsiz**. (A.Oripov.) 3. Ayo do'st, bilimli kishi izidan **borgil**, Agar so'ylasang, o'ylab, bilib **so'zlagil**. (Ahmad Yugnakiy.)

4. Tilagimiz: **katta bo'lgin**,

*Vafo degan yo'ldan yurgin,*

*Yaxshilarga egiz turgin,*

*Bolajonim, to'ying muborak!* (M.Usmonova.)

5. Kimning irodasi **kuchli bo'lsa**, aqlli **maslahatgo'y bo'lsa**, unga baxtning yopishgani shu. («Kalila va Dimna»dan.) 6. Alloh taolo va payg'ambar alayhissalom mendan **rozi bo'lsin desangiz**, yaxshilik ittifoqini **buzmangiz**. («Ilmi axloqdan»). 7. O, gul bahor, sen **ochil, ochil** va **sochil**, **Madh etayin** men yoza-yoza. (Uyg'un.) 8. Namuncha shoshilmasangiz! Hozir uyimizni mehmonlar bosadi, - dedi Odiljon Xanifani **to'xtatmoqchi bo'lib**. («Saodat»). 9. Tunlari boshida ayting o'lanlar, Manguberdi bo'lib, Ulug'bek bo'lib, **Toki ulg'aysin** lashkariy so'zlar. (N.Ostonov.)

Yuz bermagan ish–harakatni ifodalovchi mayl turlari subyekt xohish–irodasini ifodalashga ko‘ra farqlanadi. Bunda shart mayli kuchsiz (**IIa guruh**), buyruq–istak va maqsad mayli kuchli (**IIb guruh**) a‘zo hisoblanadi. Yuqorida ajratilgan fe‘llar qatnashgan gaplarning ikkinchi guruhi shu asosda quyidagicha yana guruhlarga bo‘linadi: <sup>6</sup>

**IIa guruh.** 1. *Agar so‘ylasang, o‘ylab, bilib so‘zlagil.* (Ahmad Yugnakiy.) *Alloh taolo va payg‘ambar alayhissalom mendan rozi bo‘lsin desangiz, yaxshilik ittifoqini buzmaygiz.* («Ilmi axloqdan».) 2. *Kimning irodasi kuchli bo‘lsa, aqli maslahatgo‘y bo‘lsa, unga baxtning yopishgani shu.* («Kalila va Dimna»dan.)

**IIb guruh.** 1. *Go‘dak yana o‘tmayin fursat,*

*Akasiga tikadi ko‘zin:*

*-Jon, akajon, yana bir ko‘rsat,*

*Ko‘zim bilan ko‘rayin o‘zim.* (A.Oripov.)

2. *Yo rabbiy, ilmimni ziyoda qilg‘il.* («Hadis»dan). 3. *Ayo do‘st, bilimli kishi izidan borgil, Agar so‘ylasang, o‘ylab, bilib so‘zlagil.* (Ahmad Yugnakiy.) 4. *Tilagimiz: katta bo‘lgin, Vafo degan yo‘ldan yurgin, Yaxshilarga egiz turgin, Bolajonim, to‘ying muborak!* (M.Usmonova.) 5. *O, gul bahor, sen ochil, ochil va sochil, Madh etayin men yoza-yoza.* (Uyg‘un.). 6. *Namuncha shoshilmasangiz! Hozir uyimizni mehmonlar bosadi,-dedi Odiljon Xanifani to‘xtatmoqchi bo‘lib.* («Saodat»). 7. *Tunlari boshida ayting o‘lanlar, Manguberdi bo‘lib, Ulug‘bek bo‘lib, Toki ulg‘aysin lashkariy so‘zlar.* (N.Ostonov.)

Buyruq–istak va maqsad mayli yondosh ma‘no – shaxsga munosabatiga ko‘ra zidlanadi va buyruq–istak mayli (**IIb 1 guruh**) bu belgiga ijobiy, maqsad mayli majhul (**IIb 2. guruh**) munosabatda bo‘ladi.

**II v guruh.** 1. *Go‘dak yana o‘tmayin fursat, Akasiga tikadi ko‘zin: - Jon, akajon, yana bir ko‘rsat, ko‘zim bilan ko‘rayin o‘zim.* (A.Oripov.). 2. *Yo rabbiy,*

---

<sup>6</sup> Fikrlar aniqroq tushunilishi nazarda tutilib, aynan bir xil kontekstdagi fe‘llar mayl turlarining ziddiyatlari asosida qayta berildi. Turli qurshovlarda voqeyalanuvchi shakllarning hamroh ma‘nolarida turlicha tovlanishlar yuz berishi nazarda tutilib, fe‘llar bir xil qurshovlarda takrorlandi.

ilmimni ziyoda qilg'il. («Hadis»dan). 3. Ayo do'st, bilimli kishi izidan **borgil**, Agar **so'ylasang**, o'ylab, bilib **so'zlagil**. (Ahmad Yugnakiy.)

**II g guruh.** Namuncha shoshilmasangiz! Hozir uyimizni mehmonlar bosadi, - dedi Odjiljon Xanifani **to'xtatmoqchi bo'lib**. («Saodat»). Turlari boshida ayting o'lanlar, Manguberdi bo'lib, Ulug'bek bo'lib, **Toki ulg'aysin** lashkariy so'zlar. (N.Ostonov.)

Mayl turlari qo'llanishiga ko'ra ham zidlanadi. «Mustaqil qo'llanmaslik» shart maylida ustuvor, aniqlik, buyruq–istak, maqsad mayllarida kuchsiz yuzaga chiqadi. Chunki o'zbek tilshunosligida ishlab chiqilgan kesimlikning qo'llanishiga turi–mustaqil va nomustaqil kesimlik shakllari sirasida nomustaqil kesimlik shakli bo'lgan –sa shart mayli qo'shimchasi diskurs qurshovida boshqa, bu qurshovdan tashqarida boshqa ma'no anglatadi. Masalan, *Odamlarga bu haqda so'ylasang, o'ylab, bilib so'zlagil* o'shma gapi (bu gap formal-funksional talqinda qo'shma gap sifatida nazarda tutilishini eslatib o'tamiz) tarkibida shart mayli shakli sof «shart» ma'nosini, undan tashqarida esa iltimos tipidagi «istak» ma'nosini ifodalaydi: *Odamlarga bu haqda so'ylasang*.

Mayl kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosi «bajaruvchining ish-harakatga moyilligi» bo'lib, bu umumiy ma'no maylning turlarida «maqsad», «shart», «buyruq», «istak» tarzida xususiylashadi. Har qanday maylda bu ma'nolardan biri bo'lishi shart. Biroq bularning har biri zamon ma'nosisiz yuzaga chiqmaydi. Boshqacha aytganda, zamon ma'nosi maylni yuzaga chiqaruvchi «yorliq» vazifasini o'taydi. Bunday taqozo qiluvchilik darajasi dialektik yaxlitlik maqomida va u zamon ma'nosining mayl ma'nosiga yondosh ma'no sifatida yashashini ko'rsatadi. Shu boisdan tilshunoslikda ko'pincha bu ikkala kategoriyani birlashtirib, mayl-zamon kategoriyasi deb atash hollari uchraydi. Nutq jarayonida bu ikkala o'zaro kategorial-yondoshlik yoki yondosh-kategoriallik munosabatidagi ma'nolarga turli-tuman nutqiy ma'no hamrohlik qiladi. Sabab, maqsad, shart, bog'liqlik kabi ko'plab ma'nolar shular jumlasidan. Bu ma'nolar tadqiqotchini chalg'ituvchi nutqiy illyuziyani keltirib chiqaradi. Shu boisdan

grammatik talqinlarda mayl ma'nosi xususida so'z ketganda sabab, maqsad, shart kabi ma'nolarni nutq sharoiti va matn talabiga ko'ra uni ifodalashga xoslanmagan mayl turiga xos qilib qo'yish hollari uchrab turadi va bunda maylning uslubiy imkoniyati kengligi uqtiriladi. Funksional nuqtai nazardan, albatta, bu uslubiy vazifa bo'lib, substansial nuqtai nazardan nokategorial, ya'ni hamroh ma'no sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

FOR AUTHOR USE ONLY

## XULOSA

Til birligi lisoniy qiymati murakkabligining obyektiv asosi mavjud bo'lib, bu borliqdagi birorta narsa ham sof holda bo'lmasligi, har bir alohida narsada turli umumiyliklar zarralari – xususiyliklari qorishgan holda mavjud bo'lishi bilan belgilanadi. Shakl-ko'rinish va material xususiyati narsaning o'z substansial mohiyati ko'rinishini to'sib qo'yadigan darajada yaqqol namoyon bo'lishi ham mumkin. Bu esa har qanday holda ham tashqi zohiriy alomatga tayanib ish ko'ruvchi empirik tilshunosni chalg'itadigan holatdir. Shuning uchun maxsus aqliy, nazariy bilish metodologiyasi bilan qurollangan tadqiqotchi, bizning nuqtai nazarimizcha, tilshunos aqliy yo'l bilan bu «aldamchi» ko'rinishlarni nazardan soqit qilib, narsa mohiyatini anglashga urinadi.

Narsa substansiyasi tekshirilayotganda *umumiylik* va *mohiyat* kategoriyalari aksariyat holatlarda farqlanmasdan qo'llanadi. Bu esa til birligining sof lisoniy xossalari bo'lgan mohiyati va umumiylikni ajrata olmaslikka, ularni qorishtirishga olib keladi.

Umumiylik birlikning lisoniy qiymati bo'lib, u mohiyatni ham, mohiyatdan tashqaridagi, lekin u bilan dialektik aloqadorlikda bo'lgan jihatni ham qamrab oladi. Tilshunoslikda falsafiy substansiya va aksidensiya, umumiylik va mohiyat kategoriyasining bunday tushunilishi, hamda o'rganish obyektiga izchil va to'g'ri tatbiq etilishi lisoniy birlik tabiatini to'laroq oydinlashtirish imkonini beradi. Uni aniqlashda dastlab nutq birligida qorishiq holda mavjud bo'lgan sof lisoniy umumiylik zarrasi va «begona» ma'no farqlanib, ikkinchi bosqichda lisoniy umumiylikdagi mohiyat va yondosh jihat o'rganiladi.

Grammatik shakl umumiy ma'nosi murakkab tabiatli. Umumiy grammatik ma'no murakkab tarkibli bo'lishining umumlolingvistik qonuniyati tilning nutqda yaxlit voqelanishi, unda turli sath hodisasi qorishib ketishidir.

Nutqiy grammatik ma'no tarkibi kategorial, ya'ni substansial, yondosh va hamroh ma'nodan iborat. Ulardan substansial va yondosh ma'no lisoniy xarakterga ega bo'lib, hamisha dialektik bog'langan, hamroh ma'no esa nutqiy tabiatlidir.

Kategorial ma'no grammatik shaklning substansial mohiyati bo'lib, yondosh ma'no kategoriya umuiy grammatik ma'nosida mavjud va kategorial ma'no bilan dialektik bog'langan lisoniy hodisadir.

Yondosh ma'no aslan qaysi sathga tegishliligiga qarab leksik, morfologik, sintaktik, uslubiy va qorishiq turi farqlanadi. Bu esa kategoriyaning leksik-grammatik, sintaktik, uslubiy-grammatik kabi ko'rinishi bilan bog'liq.

Hamroh ma'no - kategorial ma'no bilan dialektik bog'liq bo'lmagan matn va nutq sharoitiga bog'liq ravishda yuzaga chiqadigan ma'no. Hamroh ma'noning ham leksik, morfologik, sintaktik, uslubiy va qorishiq hamroh ma'no kabi turlarini farqlash mumkin.

Zamon kategoriyasi o'zbek tilida eng ko'p shaklli kategoriyadan hisoblanadi. Uning asosiy uch turi ko'plab ichki turlarga bo'linib ketadi. Buni ajratish, o'z-o'zidan zamon kategoriyasida lisoniy - kategorial va yondosh, nutqiy - hamroh ma'noni farqlamaslik oqibati. Kategorial va yondosh ma'no zamon kategoriyasi shakllarini ajratish uchun asos bo'ladi.

Zamon kategoriyasida zamon va mayl ma'nosi dialektik bog'liqlikda bo'lib, biri ikkinchisiz yuzaga chiqmaydi. «Mayl» ma'nosi «zamon» ma'nosi uchun nokategorial, aniqrog'i, yondosh ma'no sifatida yashaydi. Mayl kategoriyasi uchun «zamon» ma'nosi ana shunday qiymat va ahamiyat kasb etgan. Nutq jarayonida bu ikki tur ma'noga turli-tuman nutqiy hodisalar hamrohlik qilib, maxsus metodologiyasiz ularni o'rganish tadqiqotchini adashtiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. ILMIY ADABIYOTLAR

1. Asqarova M., Qosimova K., Jamolxonov H. O'zbek tili. Darslik. T.: O'qituvchi, 1989. -274 b.
2. A'lamova M. O'zbek tilidagi fe'llarda nisbat kategoriyasi. –T.: Fan, 1992. -142 b.
3. Baskakov A.A. va boshq. Umumiy tilshunoslik. –T.: O'qituvchi, 1997. -191 b.
4. Vohidov R., Ne'matov H., Mahmudov M. So'z bag'ridagi ma'rifat. –T.: Yozuvchi, 2001. -144 b.
5. Zikrillaev G'.N. Fe'lning shaxs, son, hurmat kategoriyalari sistemasi. –T.: Fan, 1990. -111 b.
6. Zikrillaev G'.N. O'zbek tili morfologiyasi. G'Filologiya ixtisosliklari uchun qo'llanmaG'.-Buxoro, 1994. -B. 163.
7. Иванов С.Н. Родословное древо–тюрок Абдул–Гази–Хана. Грамматический очерк. Имя и глагол.–Т.:Фан,1969.-201 с.
8. Иванов С.Н. Категория залога в причастии узбекского языка / Исследования по истории культур народов Востока: Сборник в честь академика И.А.Орбели. -М.: -Л., 1960. –С.123-134.
9. Иванов С.Н. Очерки по синтаксису узбекского языка. –Л.:ЛГУ, 1959. -151 с.
- 10.Иленков. Диалектика абстрактного и конкретного в “Капитале” Маркса. – М.: Акад. Наук СССР, 1960. 285 с.
- 11.Исаченко А.В. Грамматический строй русского языка в сопоставлении со словатским. Ч. II. -М.: Наука, 1965.-472 с.
- 12.Коклянова А.А. Категория времени в современном узбекском языке. -М.: Наука, 1963. -95 с.
- 13.Кононов А.Н. Грамматика советского узбекского литературного языка. – М-Л., Наука, 1966. -182 с.



- 14.Криворучко П.М. Грамматические значения временных форм русского глагола. –Киев: Радянская школа, 1963. -63 с.
- 15.Мартўнов В.В. Категория языка.–М.:Наука,1982.-192 с.
- 16.Mengliev B.R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma -Qarshi, 2004. -168 b.
- 17.Mengliev B. R. O‘zbek tilining struktur sintaksisi. O‘quv qo‘llanma. – Qarshi: Nasaf, 2003. -178 b.
18. Mirzaev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili. Darslik. –Т.: O‘qituvchi, 1970. - 267 b.
- 19.Ne‘matov H. G‘. O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi. –Т.: O‘qituvchi, 1992. -93 b.
- 20.Ne‘matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. –Т.: O‘qituvchi, 1995. -127 b.
- 21.Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв.-Т.: Фан, 1989. -191 с.
- 22.Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh., Nabieva D. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi, Morfologiya. –Т.: Yangi asr avlodi, 2001. -164 b.
- 40.Nurmonov A. Gap haqida sintaktik nazariyalar. –Т.: Fan, 1982. –100 b.
- 41.Tulenov J., G‘afurov Z. Falsafa.–Т.: O‘qituvchi, 1997.–384 b.
- 42.Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. 3-nashri. –Т.: O‘zbekiston, 1992. -335 b.
- 43.Firdaus S. Fe'l G‘G‘ Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Т.: Fan, 1966. -266 b.
- 44.Чориев А. Синтаксико-семантические признания родительного падежа в узбекском и английских языках.-Т.:Фан.
- 45.Shahobiddinova Sh. O‘zbek tili morfologiyasi umumiylik-xususiylik dialektikasi talqinida. I qism. –Andijon: nashriyotsiz, 1994. -98 b.
- 46.Shahobiddinova Sh. O‘zbek tili morfologiyasi umumiylik-xususiylik dialektikasi talqinida. II qism. -Andijon: nashriyotsiz, 1995. -27 ....b.

47. O'zbek tili stilistikasi G' A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.+o'ng'urov, X.Rustamov.-T.:Toshk. Davlat un-ti,1983.-247 b.
- 48.O'zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya G' Mas'ul muharrir G'.A. Abdurahmonov va b. -T.: Fan, 1972. -612 b.
- 49.O'rinboev B. Hozirgi o'zbek tilida vokativ kategoriya. -T.: Fan, 1972. -144 b.
- 50.Qurbonova M. M. Hozirgi zamon o'zbek tili. (Sodda gap sintaksisi uchun materiallar). -T.: O'zbekiston milliy un-ti, 2002. -102 b.
- 51.O'zbek tilining struktural sintaksisi G' M.Qurbonova, R.Sayfullaeva, G.Boqieva, B. Mengliev –T., 2004. -144 b.
- 52.G'ulomov A.G'. Fe'l. –T.: O'z.FA nashri, 1954. -88 b.
53. G'ulomov A.G'. O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi. (-lar ko'plik shakli haqida). -T.: O'z. fan nashr, 1944. -56 b.
54. G'ulomov A. O'zbek tilida kelishiklar, FA O'zbekiston filialining asarlari. T. II. 2-kitob. O'zbek tilining ilmiy grammatikasi uchun materiallar.-T.: O'z.fan nashr,1941.-94 b.
- 55.G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. /Metodik qo'llanma/.-T.: O'qituvchi,1995.-128 b.
- 56.Hojiev A.P. Fe'l Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. –T.: O'qituvchi, 1980. -447 b.
- 57.Hojiev A.P. Fe'l /Mas'ul muharrir Sh.Sh. Shoabdurahmonov –T.: Fan,1973. -192 b.
- 58.Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. –T.: O'qituvchi, 1980. -447 b.

## II. DISSERTATSIYA VA AVTOREFERATLAR

1. Аслиддинов С. Категория принадлежности в современном литературном узбекском языке: Автореф. дис.. канд. филол. наук. –Самарканд, 1964. -21 с.
2. Bahriddinova B. M. Fe'l lug'aviy shakllari tizimi. Fe'lning tur kategoriyasi: Filol. fanlari nomzodi.... dis. –Samarqand, 2002. -150 b.

3. Bahridinova B. M. Fe'l lug'aviy shakllari tizimi. Fe'lining tur kategoriyasi: Filol. fanlari nomzodi... dis. avtoref. –Samarqand, 2002. -23 b.
4. Джурабаева Дж. Категория будущего времени глагола в современном узбекском языке. Автореф.: дис. канд. филол. наук. –Т., АН УзССР, 1961. -20 с.
5. Каримов К. Категория падежа в языке «Кутадгу билиг»: Автореф. дис.... канд. Филол. наук. -Т., 1962. -22с.
6. Madrahimov I. O'zbek tilida so'zning serqirraligi va uni tasniflash asoslari: filol fan. nomzodi.... dis. avtoref. –Т., 1994. -25 b.
7. Mengliev B.R. Morfologik vositalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari.: Filol. fanlari. nomzodi diss. –Samrqand, 1995. -144 b.
8. Mengliev B. R. Lisoniy tizim yaxlitligida sathlararo munosabatlar: Filol. fanlari d-ri dis. –Т., 2002. -248 b.
9. Мирзаев Г. И. Категория переходных и непереходных глаголов в современном азербайджанском языке: Автореф. дис.... док. филол. наук. –Баку, 1986. -48 с.
10. Musulmanova N.R. Grammatik shakllarning kategorial, yondosh va hamroh ma'nolari (zamon va mayl kategoriyalari misolida). Filol. fan. dis. – Т., 2007. – 103 b.
11. Musulmanova N. Grammatik shakllarning kategorial, yondosh va hamroh ma'nolari (zamon va mayl kategoriyalari misolida). Monografiya. – Т.: Fan. 2012. – 95 b.
12. Насилов Д.М. Структура времён индикатива в древне уйгурском языке. Автореф. дис.... канд. филол наук. -1963. -26 с.
13. Раупова L. O'zbek tilida nomustaqil kesim masalasi va [WPm-WPm] qurilishli gaplar: Filol. fanlari nomzodi dis. avtoref. –Т., 1999. –23 b.
14. Салехова Н.Х. Грамматическая категория времён татарского глагола и темпральность: Автореф. дис.... канд. Филол. наук. –Казан, 1975. –17 с.

15. Султонсаидова С. Возвратный и страдательный залог в узбекском языке: Автореф. дис.... канд. филол. наук. –Т., 1978. -23 с.
16. Sultonsaidova S. O‘zbek tilida grammatik kategoriyalarning o‘zaro munosabati (o‘timli-o‘timsizlik, daraja va kelishik kategoriyalari misolida). Filol. fanlari d–ri... dis. avtoref. –Т., 1994. -56 b.
17. Фирдаус С. Категория залога в узбекском языке: Автореф. дис... канд. филол. наук. –Т.:АН УзССР, 1953. -19 с.
18. Фозилов Э. Категории залога в узбекском языке в сравнительно-историческом освещении: Автореф. дис. канд. Филол. наук. -Т., 1961. - 21 с.
19. Салкаламанидзе М. Семантико-синтаксические группы глаголов в узбекском языке. Дис... док.. филол. наук. Тбилиси. 1987. –Б. 45.
20. Шарипов Г. Категория глагольного вида в современном узбекском литературном языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук.-М., 1955. -26 с.
21. Shahobiddinova Sh. Grammatik ma’no talqini haqida: Filol. fanlari nomzodi... dis.. –Samarqand, 1993. -152 b.
22. Shahobiddinova Sh. Umumiylik va xususiylik dialektikasi hamda uning o‘zbek tili morfologiyasida aks etishi: Filol. fanlari d-ri dis... avtoref.–Т., 2001.-50 b.
23. Shukurov O. Harakat tarzi shakllari paradigmasi: Filol. fanlari nomzodi... dis. –Samarqand, 2005. -126 b.
24. Qodirov Z. M. O‘zbek tili grammatik kategoriyalarini sistem tahlil etish. / Kelishik kategoriyasi/: Filol. fanlari nomzodi. dis... avtoref. -Samarqand, 1993. -26 b.
25. Hojjeva H. O‘zbek tilida hurmat maydoni va uning lisoniy nutqiy xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi.... diss. -Samarqand, 2001. -122 b.

### III. JURNALLARDA E'LON QILINGAN MAQOLALAR

1. Гузев В.Г., Насилов Д.М. Слово-изменительные категории в тюркских языках и понятие «грамматическая категория» // Советская тюркология. -1981. -№3. -С.23-35.
2. Гузев В.Г. Парадигма глагольных финитных форм как морфологическая категория // Сов. Тюркология. - 1982.-№4. -С.67-79.
3. Гузев В. Г., Насилов Д. М. К интерперенсии категории числа имён существительных в тюркских языках // Вопросы языковедения. -1975. - №3. -С. 27-34.
4. Детериев Т.И. Лингвистический аспект категории времени в его отношении к физическим и философским аспектам // Вопрос/ыў языковедения. -1975. -№2. -С.111-117.
5. Jo'raev J. Fe'l mayllari klassifikatsiyasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti, - 1965. -№2. -В. 61-63.
6. Иванов С.Н. Категория залога в определённых сочитаниях с формой на -ган в узбекском языке // Вопросы языковедения. -1957. -№2. –С. 14-17.
7. Иванов С.Н. К истолкованию категории принадлежности // Советская тюркология. -1973. -№1. –С.76-78.
8. Мусулманова Н.Р. Она тили дарсларида замон ва майл категорияларини боғлаб ўкитиш // Тил ва адабиёт таълими. 2018. №3. 35-37-б.
9. Мусулманова Н.Р. “Грамматик шакл ва грамматик категория” модулини ўкитишда тушунчалар тахлили методидан фойдаланиш // Тил ва адабиёт таълими. 2019. №2. 21-22-б.
10. Мусулманова Н.Р. Ўтган ва ҳозирги замон категориялари грамматик воситаларининг категориал ва нокатегориал маънолари ҳамда уларнинг ўзаро муносабати // ЎзМУ хабарлари. – Т. 2019. №1 151-156-б.
11. Мусулманова Н.Р. Структура общего значения категорий времени и склонения в узбекском языке // Вестник науки и образования. – М. – 2020. №2 (80). С. 36-40.

12. Ne'matov H.G'. Fe'l, uning forma va kategoriyalari // O'zbek tili va adabiyoti.-1972.-№1.-B.-39-47; -№2.-B.42-50.
13. Ne'matov H.G'. Tajalli tasavvuf bilish nazariyasi va tilshunoslikda sintaksisni o'rganish masalalari // O'zbek tili va adabiyoti. -1993. -№2. -B. 27-30.
14. Shahobiddinova Sh. Bosqichli mavhumlashtirish umumiy grammatik ma'noni ochish usuli sifatida. // O'zbek tili va adabiyoti. -1995. №3. B.-2-13.
15. Штелинг Д.А. О неоднородной грамматической категории // Вопросы языка. -1959. -№ И. -С.16-17.
16. Hojiev A. «Qo'llamoq» fe'lining ishlatilishi haqida // O'zbek tili va adabiyoti. -1963. №5. -B. 68-70.

FOR AUTHOR USE ONLY

## SHARTLI QISQARTMALAR

- UGM – Umumiy grammatik ma’no  
XGM – Xususiy grammatik ma’no  
OGM – Oraliq grammatik ma’no  
XG – Xususiy gul  
USQ – Umumiy sintaktik qolip  
ULM – Umumiy lug’aviy ma’no  
GK – Grammatik kategoriya  
GSh – Grammatik shakl  
SSh – Sintaktik shakl  
MSh – Morfologik shakl  
MK – Morfologik kategoriya  
SB – So‘z birikmalari  
MZTSh – Mayl, zamon, tasdiq/inkor, shaxs  
TMZSh – Tasdiq/inkor, mayl, zamon, shaxs  
KM – Kategorial ma’no  
YoM – Yondosh ma’no  
HM – Hamroh ma’no  
KF – Ko‘makchi fe‘l  
Sh/S – Shaxs/son

## MUNDARIJA

<b>KIRISH. LISONIY MOHIYAT UMUMIYLIKLAR MAJMUU SIFATIDA.....</b>	<b>3</b>
<b>1– BOB. GRAMMATIK MA’NO TARKIBI. KATEGORIAL, YONDOSH VA HAMROH MA’NO</b>	
1.1. Grammatik shaklning umumiy grammatik ma’nosi va uning tarkibiy qismlari. Kategorial va nokategorial ma’no .....	15
1.2. Kategorial ma’noning turlari.....	25
1.3. Yondosh ma’noning turlari.....	28
1.4. Nutqiy illyuziya yoki shakllarda hamroh ma’no masalasi .....	32
1.5. Hamroh ma’noning turlari.....	40
<b>2–BOB. ZAMON KATEGORIYASI UMUMIY MA’NOSI TARKIBI</b>	
2.1. Zamon va mayl kategoriyalari munosabati.....	52
2.2. Zamon kategoriyasida kategorial, yondosh va hamroh ma’no hamda ularning o‘zaro munosabati.....	56
2.3. Zamon shakllarining kategorial, yondosh va hamroh ma’no asosidagi oppozitiv munosabatlari .....	68
<b>3–BOB. MAYL KATEGORIYASI UMUMIY MA’NOSI TARKIBI</b>	
3.1. Mayl kategoriyasida kategorial, yondosh va hamroh ma’no hamda ularning o‘zaro munosabati .....	71
3.2. Mayl kategoriyasi turlarining kategorial, yondosh va hamroh ma’nolar asosidagi oppozitiv munosabatlari.....	77
<b>XULOSA.....</b>	<b>81</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>83</b>
<b>SHARTLI QISQARTMALAR.....</b>	<b>90</b>



FOR AUTHOR USE ONLY

**More  
Books!**



yes  
**I want morebooks!**

Buy your books fast and straightforward online - at one of world's fastest growing online book stores! Environmentally sound due to Print-on-Demand technologies.

Buy your books online at  
**[www.morebooks.shop](http://www.morebooks.shop)**

Kaufen Sie Ihre Bücher schnell und unkompliziert online – auf einer der am schnellsten wachsenden Buchhandelsplattformen weltweit! Dank Print-On-Demand umwelt- und ressourcenschonend produziert.

Bücher schneller online kaufen  
**[www.morebooks.shop](http://www.morebooks.shop)**



[info@omniscryptum.com](mailto:info@omniscryptum.com)  
[www.omniscryptum.com](http://www.omniscryptum.com)

OMNIScriptum



FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY